

# **Course: History of the Eastern and Western philosophy**

**Lecture 6:** The Formation of Experimental  
mathematical Naturalism in Modern Era

**Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova**

## XVII ASR FANI TARAQQIYOTI VA FALSAFA MUAMMOLARIDA BO'LGAN O'ZGARISHLAR

Blez Paskalning matematika va fizika sohasidagi kashfiyotlari.

Pyer Gassendining atomistik materializmi.

Jon Lokkning empiristik gnoseologiyasi.

Gotfrid Leybnitsning ratsionalistik gnoseologiyasi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Bilish metodlari, atomistik materializm, empirizm, birlamchi va ikkilamchi sifatlar, monadologiya.

*Darsning maqsadi: XVII asr fan taraqqiyotiga oid ta'limotlar haqida atroflicha va chuqur bilimga ega bo'lish; fan falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish; mazkur falsafasi bo'yicha talabalarning bilimini kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.*

Blez Paskal Avgustindan hozirgi zamon xristian ekzistensial falsafasiga qarab keluvchi rivojlanish yo'nalishiga mansubdir. Fransuz madaniyatida Paskal bilan Dekart ikki bir-biriga zid qutb hisoblanib, ularning har biri bu madaniyat an'alarini o'zicha tasavvur qiladi.

**Blez Paskal** 1623 yil Klermon-Fyerran shahrida, qirol maslahatchisi oilasida dunyoga keladi. Paskalning onasi u ikki yarim yoshda bo'lganida olamdan o'tadi. Paskal ikki nafar singlisi bilan otasining qaramog'ida qoladi. Uning otasi dunyoqarashi keng, o'qimishli inson bo'ladi. O'z farzandlarini insonparvar-pedagog Monten ruhiyatida tarbiyalaydi. Rafiqasini vafotidan so'ng butun umrini farzandlariga bag'ishlaydi. Ularga qadimgi yunon, lotin, grammatika, matematika, tarix va geografiyadan ta'lim beradi. 1631 --yilda Paskal oilasi bilan Pvrjiga ko'chib ketadi. Blez kasalmand, lekin daholig'ga ulg'ayadi. U o'z iqtidorini matematika va fizikada, so'ngra kashfiyotchilikda, mulohazali esselarda, xudojo'ylikda va nihoyat, falsafada sinab ko'radi. Mutafakkir qaysi sohaga qo'l

urmasin, har yyerda o'zining yorqin izini qoldiradi. 10 yoshga to'lganida "Tovushlar haqida traktat" yozadi, 12 yoshida "matematik o'yinlari"da qayta Evklid geometriyasini kashf qiladi. 32-teoremagacha etib borib, "Evklid asoslari"ni o'rganishga ijozat oladi, ularni ijodiy rivojlantiradi. 13 yoshida Blez ruhoniy M.Myersenning uy "matematik akademiya"siga a'zo bo'ladi. Bu akademiya Dekart, Roberval, Dezarg va Paskalning otasi ham a'zo bo'lganlar. Bu "maktab"da Paskal "loyihaviy (proektiv) geometriya"ga asos soladi. Bu Dekartning "analitik geometriya"sidan farq qilar edi.

16 yoshida "Konus kesimlar nazariyasining tajribasi" asarini yozadi, bu asar matematikaning oltin fondiga kiradi. 1640-yil Paskallar oialasi Ruanga ko'chib o'tadi. Blezning otasi rentendent (rentalarni o'lchovchi) qilib tayinlanadi. Bu mansab aniq murakkab matematik hisob-kitobni talab qilar edi. Otasiga yordam berish maqsadida Blez tarixda ilk bor arifmetik hisoblash mashinasini kashf qiladi. Uning asosiy tamoyillari so'nggi arifmometrlarda qo'llanildi. Paskalning bu xizmatini keyinchalik N.Vinyer yuqori baholaydi. Falsafiy mulohazalarida Paskal Dekartning inson ruhiy funksiyalari avtomatizmi haqidagi g'oyalarini amalga oshiradi. Hisoblash mashinasini mukammallashtirish ustidagi uzoq yillik mashaqqatli mehnati 19 yoshli Paskalni sog'lig'ini og'irlashtiradi. Azobli bosh og'rig'iga uchraydi. Keyin u o'zini sog'lom his qilmaydi.

1646 --yilda Paskalning otasi betob bo'lib qoladi. Ularning uyiga yansenchi-shifokorlar tashrif buyuradi. Shunda Paskalning ilk bor "xristianlik diniga murojaati" sodir bo'ladi. Blez xristianlikning yorqin himoyachisiga aylanadi va oila a'zolarini ham bunga jalb qiladi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmaydi. Yangi ilmiy kashfiyotlar Paskalni dindan uzoqlashtiradi. U gidrostatika sohasida, vakuum ustida tajribalar o'tkazadi. "Tabiat bo'shliqdan qo'rqadi" degan sxolastik fikr uning yorqin tajribalaridan so'ng inkor qilinadi. "Torichelli bo'shlig'i" ustida olib borilgan tajribalar muvafaqqiyatli yakun topadi. U mashhur "Paskal qonunini" kashf qiladi. Bu gidrostatikaning asoslanishi edi.

1647 yilning sentyabrida og'ir kasal Paskal (oyoq falajiga uchraydi) oldiga Dekart tashrif buyuradi. Bunda Dekartga hisob-kitob mashinkasi va bo'shliq

haqidagi tajribalar namoyish etiladi. Paskal Dekartga savol beradi: “Kolbadagi simob ustida nima mavjud?”. Bu savolga Dekart “nozik materiya”, deb javob beradi. Paskal bu javobga ishonmaydi, lekin Dekart bilan ham bahslashmaydi. Aslida mutafakkirlar har xil bo‘shliqni nazarda tutgan edilar: Dekart – metafizik mutlaq bo‘shliqni nazarda tutgan edi, va olim o‘z mulohazasida haq edi. Falsafa tarixida bunday bo‘shliqning yo‘g‘ligi haqida Parmenid, Eleylik Zenon, Empedokl va Arastu gapirgan edilar. Paskal esa – “ko‘zga tashlanuvchi tabiiy bo‘shliq”ni nazarda tutgan edi. Bu bo‘shliq havoning bosimi ostida paydo bo‘ladi. Bunda Paskal ham haq edi. Oktyabrda Paskalning “Bo‘shliqqa oid Yangi tajribalar” nomli risolasi nashrdan chiqadi. Dekart X.Gyugensning otasiga yozgan maktubida mazkur risolaga salbiy munosabatini bildiradi.

Paskal bir --yildan so‘ng “Suyuqlikning muvozanatiga oid buyuk tajribasini” amalga oshiradi. Mazkur tajriba “bo‘shliqdan qo‘rquv” aqidasini uzil-kesil chipakka chiqardi. Shundan so‘ng Dekart bu g‘oyani Paskalga u berganini aytadi. Yosh olim uchun bu haqoratli tuyuladi, lekin Blez bunga diqqat qaratmaydi. 1651 -yilda bo‘shliq haqidagi hamma tajribalarini jamlab “Bo‘shliq haqida traktat”ini yozadi. Lekin bu traktat negadir nashr qilinmaydi. Klermon kolleji rektori ruhoniylar Noel (Dekartning ustoz bo‘lgan) mazkur risolani nashr qilmaslik uchun bor kuchini sarflaydi. Traktat haqida hanuzgacha ma’lumotlar yo‘q, lekin traktatning “Muqaddima”si bizgacha etib kelgan. Ana shu “Muqaddima”da yosh olim Yangi davr gnoseologiyasining “Manifesti”ni bayon qiladi. Ilmiy tadqiqotlar erkinligini ta’kidlaydi. Mazkur erkinlik qadimgi va sxolastik nufuzlardan holi, tabiat fanlarida tajribaning fundamental o‘rni beqiyosligidan iborat. Yosh olim original fan tasnifini beradi. Umuman olganda, Paskal taqdirida ilm-fan katta rol o‘ynaydi.

Shifokorlar Paskalga osuda hayot kechirishi kerakligini tavsiya qiladilar. Bu Paskal uchun fan yo‘lida Yangi ufqlarni ochadi. Yosh olim Yangi tadqiqotlar va ehtimollik nazariyasi ustida ish olib boradi. U qimorli o‘yinlarda yutug‘li vaziyatlar tahliliga o‘z nazariyasini qo‘llaydi. Lekin taqdir ikkinchi marotaba yovuz hazil qiladi. 1654 --yilda Sena ko‘prigida sodir bo‘lgan voqea Paskalni butunlay boshqa hayotga yo‘naltirib yuboradi. U xudoning inoyati bilan tirik

qoladi. 1655-yilning yanvar oyida Paskal Por-Royal monastiriga ketadi. 3 -yildan so'ng uning singlisi Jaklin ham rohiba bo'ladi. Oxirgi 8 yil mobaynida Paskal butunlay taqvodor hayot kechiradi.

Biroq bunday qat'iy Xudoga xizmat qilish Paskalni chiniqtiradi, aqlini o'tkirlashtiradi. U ijodga beriladi. Paskal Por-Royaldagi yansenchilar safiga qo'shiladi. Ularga "buyuk Antuan Arno" rahbarlik qiladi. Paskal iezuitlar ordeniga qarshi pamfletlar, satirik komediyalar yozadi. Shuningdek, bir qancha ilohiy-diniy asarlar ham yozadi, jumladan, "Iso payg'ambarning qisqa tarixi" (1656), "Huzur haqida esse" (1658), "Kasalliklarga qarshi duolar" (1659) va boshqalar. Eng asosiysi olim "Xristianlik dini apologiyasi"ni yozishga kirishadi, lekin tugata olmaydi. Bu qo'lyozmalar 1669 --yilda "Din va boshqa predmetlar haqida fikrlar" nomi bilan Por-Royalda nashrdan chiqadi. Keyinchalik Voltyer unga "Fikrlar" deb nom beradi. O'z mazmuniga ko'ra, "Fikrlar" "din apologiyasi"ga emas, balki diniy ruhdagi falsafiy mulohazalarga bag'ishlangan. Unda abadiy falsafiy masalalar hamda bugunning dolzarb mavzulari ko'tarilgan.

Por-Royalda Paskal ilmiy tadqiqotlarini to'xtatmaydi. 1658-1659 yillarda qator matematik tadqiqotlarini e'lon qiladi. U matematik tahlil kashfiyotiga yaqin keladi. Yosh olim 39 yoshida vafot etadi. Keyinchalik biograflarning so'ziga ko'ra, uning tanasi og'ir fan tadqiqotlaridan juda zaiflashadi. Paskalning hayotlik davridayoq "fransuzcha Arximed", "fransuzcha Dante", "Por-Royallik iloh" deb atashadi. Shunday qilib, Paskal Yevropa falsafasida o'ziga xos o'ringa ega, falsafadan tashqaridagi faylasuf hisoblanadi. Paskalning so'ziga binoan: "Falsafa ustidan kulish, bu demak, haqiqiy falsafa suqish demakdir!".

Paskal "Fikrlar"da qalbning dalillarini himoya qiladi. Shu bilan bir vaqtda, u diniy haqiqatlarga biz isbot ham, inkor ham topa olmasligimizni uqtiradi. Shu bois Xudoga yuzlanib, biz bor narsani yutishimiz va hech narsa yo'qotmasligimiz mumkin. Jumladan, u shunday deydi, "Xudoni bilishdan Unga muhabbatgacha naqadar uzoq" [5, fr.280, 332], "Xudoni aql emas, qalb sezadi". Ekzistensial bilish va tanlash (bu o'rinda – Injildagi Xudoni tanlash) Paskalni hozirgi zamon ekzistensialistlari bilan birlashtiruvchi asosiy mavzulardir [5, fr.278, 232]. "E'tiqod

Xudoning tortig'idir. Uni aqlning tortig'i deb o'ylamang", - deydi Paskal [5, fr.279, 267].

Paskalni ratsionalistlarga mansub deb aytish mumkin, zotan uning bilishning noaniqligiga doir ekzistensial tushkunligi o'ziga xos "teskari" ratsionalizm hisoblanadi. Boshqacha aytganda, Paskalning ham, ratsionalistlarning ham ufqi bitta. Ular fundamental metafizik va diniy masalalarga nisbatan aniqlikni talab qiluvchi bilishning bir xil ideallariga asoslanadilar. Ammo Paskal bu ideallarni amalga oshirish mumkinligiga ishonmaydi. Shuning uchun u ekzistensial noumidlik pozitsiyasini egallaydiki, bu pozitsiya bizning bilish qobiliyatlarimizga nisbatan ratsionalistik ishonchga batamom ziddir.

Bu alohida olingan dalillar o'z holicha ikkita har xil faylasuf uchun bir xil ma'noni anglatishi mumkinligini ko'rsatadi. Ammo bu dalillarga ularning o'zaro aloqasi nuqtai nazaridan qaralsa, ular turli narsalarni anglatishi ma'lum bo'ladi, chunki ular turli kontekstlarga mansub. Ikkita faylasuf, masalan, Paskal bilan Yum bizning bilish qobiliyatlarimizga nisbatan "bir xil" skeptik munosabatda bo'lishi mumkin. Ammo ularning falsafiy pozitsiyalari har xil bo'lgani tufayli, skeptitsizm ularning har biri uchun alohida ma'noga ega bo'ladi. Bilishga ratsionalistik munosabatda bo'lgan Paskal uchun skeptitsizm og'riqli xususiyatga ega edi. Empiritsizm va "sog'lom aql"dan kelib chiqqan Yum uchun esa skeptitsizm hech qanday dramatik xususiyatga ega emasdi.

Blez Paskal fransuz matematigi va fizigi, ehtimollik nazariyasining asoschilaridan biri edi. Paskalning falsafiy qarashlari qarama-qarshidir. U ratsionalizm bilan skeptitsizm o'rtasida ikkilanib yurar, dinning aqldan ustunligini e'tirof qilishga moyil edi. Paskalning mantiqiy qarashlari induksiya va deduksiya haqidagi, ishonchli bilimning turlari haqidagi ta'limot va boshqalar. Dekartning metod haqidagi ta'limotini davom ettirdi va Pol-Royal mantig'iga ta'sir ko'rsatdi.

"Provensialga maktublar"ida Paskal katolik cherkovining tayanchi bo'lgan iezuitlarni qattiq tanqid qilgan edi. Paskalning iezuitlarning ma'naviy zo'ravonligiga qarshi kurashini fransuz jamiyatining ilg'or qatlamlari qo'llab-quvvatladilar.

An'anaviy metafizika borasida Paskal falsafani "bir soatga ham arzimaydigan mehnat", - deb baho beradi. Ilmiy izlanishlar unda "aniq ma'lumotlar bilan ishlash"ga muhabbat uyg'otadi, tajribaviy tadqiqotlar ustida ishlash abstrakt falsafaga, sxolastik mulohazalarga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini shakllantiradi. Biroq shu bilan birga Paskal – "Xudo yuqtirgan faylasufdir". Unda tug'ma falsafiy intuitsiya mavjud. Bu qobiliyat uni bilim va borliq "negizlariga", yuqori falsafiy cho'qqilarga intiltiradi. "Tafakkur qasrida" u "qalb ustivorligi" uchun kurashadi "tafakkur metafizikasi" bilan birga ajoyib "qalb metafizikasini" ham Yaratadi. Agar Dekartni Yangi Yevropa falsafasining "otasi" deb hisoblashsa, Paskal falsafasini uni "onasi" deb aytish mumkin. Unga ezgu qalblik, yumshoqlik, bag'rikenglik va insoniylik xos.

"Qalb falsafasi" – bu hodisaga ilgari Yevropa guvoh bo'lmagan. Shuning uchun ham uning "qalb nidosi" "cho'li biyobonda nara tortgan sado" sifatida namoyon bo'ladi. Uning "qalb sadosiga" rossiyaliklar javob qaytaradi. Rossiyada o'ziga xos "qalb metafizikasi" mavjud edi. Masalan, I.Kireevskiy, Xomyakov, YUrkevich, Florenskiy, Visheslavsev, I.Ilin, yeru-xotin Ryerixlar, D.Andreev va boshqalarni keltirish mumkin. "Paskal qalbi" "sirli rus qalbiga" hamohangdir. Paskalning "qalb" vazifalari turlicha va asoslidir: "qalb" gnoseologiya va borliqning dastlabki tamoyillarini his qiladi, "hissiy intuitsiya" a'zosi vazifasini bajaradi; antropologiyada – shaxsning ichki olamini his qiladi; axloqda – axloqiy tartib subyektini; ilohiyotda – "qalb Xudoni taniydi".

Paskalning fikrlari qanchalik o'ziga xos bo'lmasin, unga sezilarli ta'sir qilgan faylasuflar bo'lgan. Bularga Muqaddas Avgustinni kiritish mumkin. Uning insonni diniy-ruhiy talqinini, inson dastlabki gunoh bilan tug'ilishi haqidagi ta'limotini hamda Xudoni inoyatini kutib yashash zaruratini Paskal qabul qiladi. Lekin Avgustinning diniy fanatizmini, majusiylarga, ateistlarga, faqat cherkov nufuzini tan olishiga bo'lgan munosabatini butunlay inkor qiladi. So'ngra Mantening "sog'lom" tafakkur bahosi, tafakkurning yuksakligi va noqisligi haqidagi fikrlari, "tajribaga asoslangan Yangi fan" uchun kurashi, sxolastikaga qarshiligi, xalq donishmandligiga murojaati ham Paskal diqqatini qaratadi. Lekin

uning “ashaddiy prironizmi” va “gunohkorlarga par yostiq qo‘yadigan axloqiy epirkurizmi”ni Paskal qabul qilmaydi. Va-nihoyat, Dekartning “nozik materiya” haqidagi g‘oyalarini ham tan olmaydi. Dekart uning “g‘oyaviy dushmani” sifatida namoyon bo‘ladi. Dekartning fizikasiga kinoya qiladi, uni “Don Kixot romani singari tabiat romani”, - deb ataydi. Dekartning dogmatizmini, ssientizmini, ratsionalizmini va mexnitsizmini (“dunyo mashinasi”, “organizm-avtomat”) kabi fikrlarini umuman “hazm” qila olmaydi.

Lekin boshqa tomondan, Paskal Dekart tufayli falsafaga yaqinlashdi, bu birinchidan. Ikkinchidan, undan “fikrlash tamoyilini o‘zlashtirdi” va ijodiy rivojlantirdi. Uchinchidan, uning aksiomatik-deduktiv uslubini yuqori baholadi va o‘zining “geometrik uslubini” ishlab chiqdi.

Paskalning bilish nazariyasi g‘arb faylasuflari uchun hayratomuz tuyuldi: “Biz haqiqatga nafaqat aql bilan, balki qalb bilan ham yerishamiz”, bu inson “sog‘lom fikrining” tabiiy holatidir. Qallda “borliqning dastlabki asoslari” ochiladi, ularga makon, zamon, abadiyat, harakat, sonlar va hokazolar kiradi. Dekartda bu “intellektual intuitsiyaning” yumushidir, Paskalda esa “qalbning hissiy intuitsiyasidir”. Demak, “unda asoslar his qilinadi, teoremlar aql orqali isbotlanadi. Ular turli yo‘llar bilan echilgan bo‘lsa ham, haqiqatga to‘g‘ri keladi”. “Hissiyotlar o‘z yo‘lida hech qachon aldamaydi”, - deb hisoblaydi Paskal. Tafakkur muayyan holatlarda, isbotlarda kuchli, lekin “oliy ibtidoni” bilish masalalarida faqatgina u haqiqat mezoni emas. Chunki unga salbiy ta‘sir etuvchi taassurotlar, xohish-istaklar, ehtiroslar va hokazolar mavjud. Shundan tafakkur – “elda qolgan xas” misoli ularning iskanjasidan qutula olmaydi. U inson singari ham buyuk, ham zaif.

Paskal tafakkurning “mutlaq buyukligini”, shu bilan birga “nisbatan zaifligini” tan oladi. Bu zaiflik hissiyot orqali, qalb orqali, muhabbat orqali mo“tadillashadi, Zero, Paskalda “haqiqatga mehr-muhabbat orqali ham yerishish mumkin”. Mutafakkir hech bir bilish qobiliyatini mutlaqlashtirmaydi. Lekin har bir soha o‘z chegaralarini o‘zi belgilaydi, qo‘llash sohalarini aniqlaydi. Holbuki, aqliy isbotning ilmiy kuchi falsafiy antropologiyada, axloqda, psixologiyada, dinda

quvvatsizlik qiladi, mazkur sohalarda aqlga nisbatan “qalb”ning ahamiyati kattaroqdir. Har bir qobiliyat o‘ziga xos betakroridir, bir-birini o‘rnini qoplolmaydi. Masalan, “qalb”dan uning hissiyoti isbotini talab qilish kulgili bo‘lar edi, xuddi shunday “aql”dan ham teoremlarni hissiy isbotini talab qilib bo‘lmaydi.

Paskal antik davrdagi haqiqatni tushunish idealidan kelib chiqadi, unga ko‘ra, yaxlit haqiqatga to‘la yerishib bo‘lmaydi. Chunki u insonga to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Gap shundaki, butun koinot va atrof olam juda keng hamda chuqurdir (“buyuklik ham cheksiz” va “maydalik ham cheksiz” xuddi shunday barcha narsalar ham). “Beqiyos tabiat bag‘ridagi hamma ko‘zga tashlanuvchi dunyo zo‘rg‘a ilg‘ab olinadigan chiziqlardan iborat”. Ana shu cheksizlikka ega bo‘lish uchun, cheksiz bilish qobiliyati talab qilinadi, bunday qobiliyat insonda yo‘q. Bundan tashqari, “dunyodagi hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq”: qism – butun bilan va boshqa qismlar bilan, butun – qism bilan bog‘liq. Butunni bilish uchun uni hamma qismlarini bilish kerak bo‘ladi, bu yana mushkulot tug‘diradi. Inson dunyoda o‘rta holatni egallaydi, “abadiyat bilan qiyoslaganda hech nima, yo‘qlik bilan qiyoslaganda hamma narsa; hamma narsa va hech narsa o‘rtasida, oxirgi chegaralarni tushunishdan juda yiroq; narsalarning ibtidosi va intihosi undan sinoatla yashiringan. Xuddi shunga teng noborliqni u ko‘ra olmaydi. Noborliqdan kelib chiqqan bo‘lsa ham, lekin abadiyat uni o‘z domiga tortadi”. Ikki chegar o‘rtasidagi taassurotni kuchaytirish uchun Paskal “tubsizlik” ramzini kiritadi, ikki “qutb” – “cheksizlik tubi” va “noborliq tubi” ana shu ikki “qutb o‘rtasida” inson fojiviy “xochlangan”. Shundan ba’zi tadqiqotchilar Paskalning bilish sohasidagi pozitsiyasini “skeptitsizm”da (Kuzen, M.Filippov) yoki Kant ruhiyatidagi agnostitsizm (D.Gulyaev, L.Goldman) ayblaydilar. Lekin M.Legyern ko‘proq haq. Chunki bu tadqiqotchi Dekart va Paskal ta’limotlarida skeptitsizmga qarshi kurashdagi umumiy chizgilarni topa olgan. Biz ham uning pozitsiyasini quvvatlaymiz. Zero, Paskal Dekartning “gnoseologik optimizmini” yuqori baholaydi, o‘zi ham “ashaddiy pirronizmga” qarshi chiqadi. Garchi biz “hammasini” bila olmas ekanmiz, bu “hech nimani” bilmaymiz degani emas. Paskal haqiqatning mutlaqligi va nisbiyligi o‘rtasidagi nozik dialektik munosabatni

his qila olgan. Tashqi hissiyot, tafakkur, “qalbiy intuitsiya” darajasidagi haqgo‘ylikni tan olgan holda, ehtimoliliy nazariyasini asoschisi sifatida, mutafakkir “ehtimoliy bilimning” obyektivligiga va haqiqatligiga to‘liq ishonadi. Xulosa qilib Paskal shunday deydi, “biz o‘zimizda haqiqat g‘oyasini ko‘tarib yuramiz, buni hech qanday pirronizm bilan engib bo‘lmaydi”.

Paskal ishonchli bilimga ega bo‘lish uchun o‘zining aksiomatik-deduktiv “geometrik uslubini” ishlab chiqadi. “Haqiqatni ochish yo‘lida, uning fikriga ko‘ra, uch maqsadni amalga qo‘yish zarur: haqiqatni izlaganda uni ochish; uni topganda isbot qilish zarur; va-nihoyat, uni tadqiq qilayotganda yolg‘ondan ajratish”. Chunki evristika-bashorat uchun umumiy qoidalar yo‘q, Paskal “fan isboti” uslubiga katta e‘tibor qaratadi. “Mukammal uslub” g‘oyasi juda oddiy: hamma terminlarni aniqlash, hamma holatlarni isbotlash va ularni muayyan tartibda joylashtirish. Lekin “hamma” narsani aniqlash va isbotlash mumkin emas (uning oqibati “cheksizlik regressiga olib keladi”). Demak, geometriklar yo‘lini tutish zarur, ular “dastlabki terminlarni aniqlamaydilar” va aksiomalarni isbotlamaydilar, “boshqa hamma narsani” aniqlaydilar va isbotlaydilar. Qaysiki, “geometriyani tashqarisiga chiqadigan narsa, bizdan ham tashqarida bo‘ladi” – Paskalning ushbu aforizmi “tafakkur davrida” juda mashhur bo‘lgan. “Mukammal” difinitsiyalar, aksioma va isbotlar uchun u o‘zining qoidalarini ishlab chiqadi.

Difinitsiya qoidalari:

Hammaga ma‘lum bo‘lgan terminlarni aniqlamaslik kerak. Qorong‘u yoki ikki xil ma‘no beradigan terminlarni difinitsiyasiz muomalaga kiritmaslik. Difinitsiyalarda ma‘lum bo‘lgan yoki tushuntirilgan terminalar qo‘llash kerak.

Aksioma uchun qoidalar:

Ular qanchalik aniq bo‘lishidan qat‘iy nazar, tadqiqsiz hech qanday zaruriy tamoyillarni qo‘llamaslik. Aksiomalarda faqat muayyan aniq bo‘lgan holatlarni belgilash.

Isbot uchun qoidalar:

O‘z-o‘zidan kelib chiqadigan holatlarni isbotlamaslik zarur. Noaniq bo‘lgan holatlarni isbotlash zarur, ularni faqat ma‘lum bo‘lgan aksiomalar yoki isbotlangan

holatlar orqali amalga oshirish zarur. Isbotlash jarayonida ikki xil ma'nodagi terminlardan foydalanmaslik zarur. Aniqlanuvchi terminlar o'rniga hayoliy difinitsiyalarni qo'llamaslik kerak. Qolgan uch bo'limlarda birinchi qoidaga amal qilish qat'iy talab qilinmaydi (bu qo'pol xatoliklarga olib kelmaydi). Qolganlari qat'iy isbot uchun mutlaq zarurdir.

Paskalning tushuntirishiga ko'ra, unda "difinitsiyalar mohiyati" haqida gap ketmaydi, balki faqat "nominal ta'riflar" haqida "ya'ni nutq lo'ndaligi va aniqligi" zarur. U o'z opponentlarining (raqiblarining) e'tirozini oldindan ko'ra bilishni yaxshi ko'radi (bu uslub Yangi emas, juda jo'n va uni faqat geometriyada qo'llash mumkin). U oldindan javob beradi: "Amaliyotda noma'lum bo'lgan, juda mushkul bo'lgan, foydali va univyersal bo'lgan hech narsa yo'q". Ha, sxolastlar juda ko'p qoidalarni bilishgan, lekin ularning orasidan eng muhimlarini ajrata olishmagan, "ya'ni misoli ko'plab toshlar orasidan javohirni topa olmagandek". Uslubning univyersalligi matematik nutqning lo'ndaligidan, "uning mazmuniy to'liqligidan" kelib chiqadi, bular hamma fan sohasida va umuman madaniyatda qo'l keladi. Paskalning o'zi ana shu uslubdan o'zining ajoyib aforizmlarida barakali foydalangan. Uning bu uslubi "Mantiq yoki fikrlash san'ati" nomli asarida to'liq amalga oshirilgan.

Haqiqatni "isbolash ilmi" unda "ishontirish san'ati" bilan to'ldiriladi, yoxud biluvchi inson "mavhum gnoseologik subyekt" emas, Spinozaning "ma'naviy avtomat"i emas, balki tirik, muayyan insondir, "ekzistensial subyekt"dir. U "haqiqat"ni boshidan o'tkazadi, uni yaxshi ko'radi yoki undan nafratlanadi, uni iroda kuchi va "qalbi" bilan qabul qiladi yoki inkor qiladi. "Qalbning esa o'zining qonun-qoidalari bor, uni tafakkur bilmaydi".

Insonni "qalbiga kirish uchun" "ishontirish san'ati" zarur yoki "agreman san'ati" ("yoqimli bo'lish") ham kerak. Bu "isbot qilish ilmiga" nisbatan juda nozik va murakkab, "bag'oyat go'zal" masaladir. Bu shuning uchun ham murakkabki, deydi Paskal, chunki "iroda va qalb tamoyillari" subyektdan subyektga qarab harakat qiladi, umumiy qabul qilingan qoidalariga tayana olmaydi. Boshqa kimdir buni amalga oshira olar, lekin men emas, deydi olim. Paskalning

o‘zi “ishontirish san’ati” usulidan foydalanayotganda ayrim umumiy qoidalarni qo‘llashga harakat qilgan. Uning nutqidagi yorqinlik, ta’sirchanlik, ifodalilik, qat’iy ishonch, “qalbgacha kirib borib” muxlislari tafakkurini zabt eta olgan. Paskal qoidalaridan quyidagilarni sanab o‘tish zarur: 1) ta’sirchan timsollarning va manzaralarning mo‘lligi (“fikrlovchi naycha”, cheksizlik-tubsizlik, o‘lim oldidagi hayot “asirlarning o‘z qatiliga tomon borishi” va boshqalar); 2) muallif sifatida sofdilligi; 3) soddalik va tabiiylik, qalbakilikning, ortiqcha ohanjamolikning yo‘qligi, ehtiros (affektatsiya): “eng yaxshi kitob, bu o‘quvchilar xuddi o‘zlari yozgandek ishonch tug‘dira oladigan kitobdir”; 4) Paskalning insonlarga emotsional ochiqligi. Mutafakkir nafaqat “haqiqatni ehtiros bilan izlovchilarni” yoqlagan, balki “o‘zi ham ehtiros bilan qidirgan”. Lev Tolstoyning fikriga ko‘ra, Paskal “qalbi to‘la zardob bilan yozgan”, o‘z muxlislarni sotib olmagan; 5) yozma nutqda “chin dildan ishonch uyg‘otuvchi ezgu og‘zaki muloqot” uslubidan foydalangan; 6) g‘oyaviy raqiblarini haqligini ko‘ra olgan, o‘zga fikr yurituvchiga nisbatan bag‘rikenglik; 7) haqiqatni “ongga tiqilgan zirapchadek” ziddiyat orqali paradokslar shaklida ifodalash. “Ishontirish san’ati” – bu o‘ziga xos “bilish psixologiyasidir”, uning subyektivi ekzistensial shaxs bo‘ladi.

Inson Paskal falsafasining boshlang‘ich va oxirgi nuqtasidir. Agar uning “birinchi fikri” fan bo‘lsa, “ikkinchi fikri” – inson, va-nihoyat “uchinchi fikri” – Xudo. Dinda u insoniy muammolarning yyechimini ko‘radi. Paskal “inson qismati”ni o‘rganadi. Bunda unga Montening “Tajribalari”, K.Yansenianing “Inson ichki dunyosi” asari katta ta’sir ko‘rsatadi. Shunday xulosaga keladi, inson haqidagi ta’limot umuman rivojlanmagan: “Inson muammosining yyechim topmaganligi, boshqa hamma narsani o‘rganishga majbur qiladi. Zero, mening axloqiy bilimsizligimni, tashqi narsalarni ko‘p bilishim oqlay olmaydi, zotan axloq ilmi meni doim boshqa narsalardan ovutadi”. Demak, “odam o‘z-o‘zini bilishi kerak, agar bu haqiqatni topishga yordam bermasa ham, lekin hayotni to‘g‘ri o‘zanda ketishiga turtki bo‘ladi. Aynan shunda adolat to‘la namoyon bo‘ladi”. Lekin insonni o‘rganayotganda “geometrik usul” kuchsizlik qiladi, chunki bu yyerda aniq definitya berish mumkin emas. Masalan, faylasufda 288 ta yuksak

ezgulik haqida fikr bor, xuddi shuncha ezgulik va yovuzlik, baxt, hayot mazmuni va hokazolar haqida fikrlar uchraydi. Ularni hammasini aksiomatik-deduktiv tartibda joylashtirib bo'lmaydi. Shunda Paskal inson hayotiga kuzatuv tajribasini qo'llay boshladi va bundan hayratga tushadi. Insondagi "tubsiz ziddiyatlar", go'yoki unda "bir jon" emas, balki "ko'p jonlar" bir-biri bilan kurash olib borayotgandek tuyuladi. "Inson insondan oshib o'tadi". Mutafakkir asosiy antinomiyaning belgilaydi – insoniy "buyuklik" va "tubanlik". "Insonning bor buyukligi uning fikrlarida namoyon bo'ladi", - deb ming bora takrorlaydi Paskal o'zining "Fikrlar"ida. Uning bu aforizmi quyidagi misralarda baralla yangraydi: "Inson – tabiatdagi eng zaif xasdir, lekin o'ylaydigan xas. Butun koinot unga qarshi isyon ko'tarishi shart emas. Bor yo'g'i ikki tomchi suv uni yakson qilishga qodir. Garchi koinot uni yakson qilsa ham, baribir inson koinotdan olijanobroqdir. Zero, u o'limga mahkum ekanligini biladi, hamda koinotning ustunligini ham tan oladi. Koinot esa u haqida hech narsa bilmaydi. Demak, bizning borlig'imiz fikrdan iborat. Faqatgina u bizni yuksaklikka ko'taradi. Makon va zamoni biz to'ldira olmaymiz. Yaxshi fikrlashga intilishimiz zarur. Mana shu axloqning asosidir".

Aynan shu "karteziancha nido" Paskalning dunyoqarashida ustivorlik qilmaydi. Chunki Xudoni his qiluvchi "ezgu qalb" mavjud, unda insonlarga nisbatan muhabbat limmo-lim, bu har qanday o'tkir tafakkurdan ham a'lodir. Aynan "qalb" shaxsning chuqur o'zligini belgilaydi, u "ichki insonning" ma'naviy yadrosidir. U "haqiqiy", ikkiyuzlamachi emas. "Tashqi insonni" "ayyor tafakkur" boshqaradi. Tafakkurda mehr-muhabbat emas, balki "sovuq" dalillar va isbotlar bor. Shuning uchun ham "qalb" "axloqiy tartib subyektidir". U borliqning uch tartibidan ham ustun turadi. Ular bir-biri bilan raqobatda emas. Tabiatdagi hamma narsalarni qo'shganda ham, "tafakkur misqoliga" ega bo'la olmaganimizdek, "barcha tafakkurni qo'shganimizda ham" "muhabbat misqoliga" ega bo'la olmaymiz. Chunki bu "boshqa tarkibdir". Borliqning "axloqiy tarkibi" "intellektuallikdan", inchinun "jismoniy tanadan ham" bir necha pog'ona ustun turadi. "Axloqiylikni" Paskal "g'ayritabiiy" deb hisoblaydi, chunki u Xudoga borib

taqaladi. Kamol topgan Paskal o'spirinlikdagi ratsionallikni engib o'tadi va "aqlni o'z o'rniga qo'yadi". Uni Dekart singari mutlaqlashtirmaydi, lekin yo'qotmaydi ham. Ha, "insonning bor buyukligi uning fikrida", - deb takrorlaydi Paskal, va og'ir tin oladi: "Lekin u qanday axmoq!" Ba'zida mutafakkir kinoyali tarzda "aqlning tubanligi" haqida gapiradi: Qanday kulgili qahramon! Pashsha qulog'ini tagida kuy chaladi, u esa "yaxshi fikrlay olmaydi". E, voh! "tafakkurni hamma narsa qolipdan chiqarib yuborishi mumkin": hayolot, kasallik, shaxsiy intilish, ehtiroslar va hokazolar. Shunga qaramasdan, fikr bu atribut, insonning mohiyatiy asosi: "insonni qo'lsiz, oyoqsiz, hattoki boshsiz tasavvur qilish mumkin ... lekin fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Und u hayvon yoki tosh bo'lib qolar edi". Lekin insoniy "qalb" uchun ham "buyuklik" va "tubanlik" xos. Zero, unda Xudoga bo'lgan e'tiqod mavjud. Afsus unda "tubsiz muhabbat va insonlarga nisbatan xayrixohlik" hamda "cheksiz o'zini sevish va gunoh" bilan teppa-teng holda bor. Aynan shunda axloqiy "buyuklik" va "tubanlik" namoyon bo'ladi.

Ontologik "buyuklik" va "tubanlik" "fikrlovchi xas" fragmentida yaqqol ko'rinadi. Unda hayotning yuksak ma'naviy ulug'vorligi namoyish qilinadi, shu bilan birga Koinot miqyosida olinganida qisqa muddatligi ko'zga tashlanadi: "Bir zumga chaqnagan va umrbod so'ngan, soya". Gnoseologik "buyuklik" haqiqatga intilishda amalga oshadi. Haqiqatni izlash, unga yerishish, "cheksiz bilim progressi" ham "buyuklikdir". "Tubanlik" – adashishlarda va xatolarda, mutlaq haqiqat yaxlitligini bila olmaslikda namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, "buyuklik" va "tubanlik" insonda "shunday organik chirmashib" ketganki, ular inson mohiyatini bamisoli "sirli paradoks"dek ko'rsatadi: "inson buyukligi yaqqol uni tubanligidan kelib chiqadi", va aksincha, "har qanday inson tubanligi uning buyukligini isbotlaydi". Bu buyuk senorning tubanligidir. Taxtdan mahrum bo'lgan tuban qiroldir". "Insoniy mohiyat siri" na fanga, na falsafaga bo'ysinadi. Faqatgina xristianlik dinidan Paskal yyechimni topadi: dastlabki gunoh boshidan mukammallikni buzib yubordi, ya'ni Xudo tomonidan berilgan insonning buyukligini yerga qorishtirib qo'ydi. Shuning uchun ham bu ikki ziddiyat insonda doimo kurashda bo'ladi. Masalani bunday hal qilish "aql uchun nizoga" olib

keladi, lekin “dastlabki gunoh sirisiz” inson undanda tushunarsiz bo‘lib qoladi, chunki bu “sir”ning o‘zi ham inson uchun tushunarsizdir.

“Inson qismati” – bu turmush ikir-chikirlari, turmush yumushlari, xavotir, qat’iyatsizlik, ruhiy va jismoniy iztiroblar – inson individual va ijtimoiy borlig‘idagi “fojiiyaviy dialektikani” tug‘diradi. Jamiyatni kuch boshqaradi, aql emas. Jamiyatda “ezgulikning eng ezgusi ” sifatidagi fuqarolik tinchligi o‘rniga “yovuzlikning eng ashaddiysi” sifatida urushlar hukmron bo‘ladi. Ijtimoiy qashshoqlik va yovuzlik, “hukmronlik impyeriyasi”, zo‘ravonlik va adolatsizlikka qarshi Paskal “aql impyeriyasi”, “ma’rifatli mutlaqlik” haqida orzu qiladi. Inson hayotining fojiiyaviyligi bu hayotda tinchlik va baxtga yerishib bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi. Oliy qadriyatlarni zaminiy hayotdan topib bo‘lmasligidan, uni Xudodan axtaradilar. Uni mutlaq muhabbat obyektiga aylantiradilar, undan taskin topadilar, unda xaloskorni ko‘radilar.

Paskal falsafasidagi hamma ziddiyat va paradokslar diniy doktrinasida yyechim topadi. Faqatgina xristian dini inson mohiyati antinomiyasi, qarama-qarshiliklari va topishmoqlariga tushuncha bera oladi. Shuning uchun ham bu din haqiqiy dindir: “Haqiqiy inson tabiati, ezguligi, sahovati haqiqiy dinga teng, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va birgalikda ma’noga ega”. Paskal “antropologiya sinoatini” “ilohiyat sinoatiga” tenglashtiradi. Mutafakkirning insonni diniy tushuntirishi dinni antropologik, psixologik asoslashga olib keladi. Paskal Dekart va boshqa deistlarga qarshi “aql dinini” emas, balki “qalb dinini” tashviqot qiladi. “Qalb Xudoni his qiladi, aql emas. Mana shu e’tiqoddir”. Zero, aql orqali Xudo borligini ham, yo‘qligini ham his etib bo‘lmaydi. Aql Paskalga ko‘ra, insonning “tashqi instansiyasidir”, u insonning “ichki mohiyatiga” kira olmaydi. Aql darajasidagi e’tiqod yuzaki va zaif bo‘ladi. U “qalbdan sirpanib o‘tadi”. U har xil kuchlar ta’sirida u yoqqa yoki bu yoqqa og‘ishadi, “pro va contra” argumentlar ta’siriga beriladi. E’tiqod sari uch yo‘ldan – aql, odat va “ruhlanish” orasida – aql eng ishonchsiz yo‘ldir. Lekin e’tiqod dalil sifatida kelganda, aql ikkilamchi rol o‘ynashi mumkin. Nozik e’tiqod psixologiyasi majburiy aqliy aniqlikda emas, balki “inson tomonidan Xudo sinoatini erkin va

mutlaq qabul qilganida” namoyon bo‘ladi. “E’tiqod sinoati” kabi “muhabbat sinoati” Xudoning inomidir: u holatda ham bu holatda ham “nikohlar samovatda tuziladi” Xudoning inoyati bilan. Har qanday “tashqi inkvizitsiya” bu yyerda ortiqcha, xuddi shunday “aqliy inkvizitsiya” ham. Diniy e’tiqodga qarshi har qanday shaxsiy va ijtimoiy tashviqot bema’no va g‘ayriaxloqiydir. Xuddi shunday “muhabbatga nisbatan ham”.

O‘ziga xos “e’tiqod va isbot antinomialari” mavjud: isbot qancha ko‘p bo‘lsa, e’tiqod shuncha kuchsiz bo‘ladi, va aksincha, e’tiqod qancha kuchli bo‘lsa, isbot shuncha kuchsiz bo‘ladi. Natijada G.Marsel aytganidek, isbotlar “e’tiqod uchun nizodir”. Shu yyerda e’tiqod qiluvchi Paskalning paradoksal fikri o‘rinli: “Ateizm kuchli (*marque*) aql belgisidir, lekin muayyan darajagacha”. Dinning har qanday ratsional talqinini Paskal inkor etadi. Bu inkor “e’tiqod va aql antinomiyasidan” kelib chiqadi. Paskal o‘zining “Fikrlar”ida deizmning antixristian mohiyatini anglab etadi: “Deizm dindan yiroq. Ateizm dinga ziddir”. Dekartning “xristianlik fikrlariga” qaramasdan, uni deizmga ayblaydi va falsafasidagi dinga qarshi mazmuni ochib tashlaydi. “Aql hukmronligi” “din hukmronligi”dan ustuvor turadi: “Dekart falsafada Xudodan uzoqlashgani uchun kechira olmayman. Lekin u Xudodan uzoqlasha olmagan, faqat dunyoni harakatga keltiruvchi birinchi turtki sifatida Undan foydalangan, keyin esa U kerak emas”.

Paskal “Xotiralar”idagi ma’lum “dixotomiya”sida Xudo haqidagi fikrlarini jamlab, shunday deydi: “Avraam Xudosi, Iso Xudosi, Muso Xudosi faylasuflar Xudosi emas. Faylasuflar Xudosi geometrik haqiqatlar ijodkoridir”. “SHaxsiy Xudo”ga faqat Injilda ko‘rsatilgan yo‘llar orqali yerishish mumkin. “SHaxsiy Xudo” g‘oyasi Paskalda turli ma’nolarda qo‘llaniladi: 1) u uni oldida titrab, qaqshab turish mumkin bo‘lgan “buyuk, qudratli va abadiy mohiyatdek” transsendent Mutlaq emas, balki ekzistensial xaloskor-Xudo, ya’ni Iso masihdir; 2) “shaxsiy Xudo” – insoniyat ustoz, axloqiy ideal, uning ketidan yergashish har bir nasroniyning burchidir; 3) Xudo bilan muloqotda bo‘lganda, inson o‘zini “kuchsiz jonzo” sifatida emas, balki faol shaxs sifatida tutishi kerak. Inson irodasi Xudo irodasi bilan birlashib ketishi kerak: “Bizni Yaratgan, bizsiz o‘zimizni xalos eta

olmaydi”, - bu soʻzlar Paskal asarlarining leytmotividir; 4) bunday Xudoga yagona-shaxsiy tajriba asosida, buyuk “ruhlanish” orqali yerishiladi; 5) Xudoga “ichki, qalbiy bogʻliqlik” oldida tashqi sigʻinish chekkada qoladi. Xudo qasrlar orqali inoyat qilmaydi, U sofdil va xassos nasroniy qalbiga inoyat qiladi. Paskal iezuitlar singari “tashqi eʼtiqodni” qoralaydi, u insonning “ichki olamiga” kira olmaydi, deydi. “Tashqi eʼtiqod” rasmiyatchilik odatlariga berilib ketgan. Demak, Paskalning diniy bagʻrikengligi inson maʼnaviy erkinligini tan olishida namoyon boʻladi. U oʻzga dinlarga va ateistlarga nisbatan hech qanday zoʻravonlikni, hech qanday qarshilikni tan olmaydi. Mutafakkir eʼtiqod borasidagi salb urushlariga, oʻtda kuydirishlarga, jodugarlikda ayblovlarga, inkvizitsiyaga qarshi chiqadi. U bunda Evangeliyaga asoslanadi, “unda Iso Masih dushmanlariga, azob beruvchilariga qarshi hech qanday qoʻpollik yoʻq”. Xuddi shu narcha Paskal falsafasining markazi hisoblanadi: “Xudo xassoslik bilan hammasini boshqaradi. Aqlga dalillar orqali, qalbga Ezgulik bilan taʼsir qiladi. Dinda kuch va tahdidlardan foydalanib boʻlmaydi. Bu din emas, tyerrorga aylanadi”.

Paskal insonlarning dinga boʻlgan munosabatini tahlil qilib, ularni 4 guruhga ajratadi. Birinchi guruhga, Xudoga chindildan sajda qilib, unga xizmat qilganlarni kiritadi. Ular ton maʼnoda baxtli insonlardir. Ikkinchi guruhga Xudoni qidirganlar, lekin hali uni topmaganlar kiradi. Ular baxtsiz, lekin umidsiz emas. Uchinchi guruhga ateistlar, Xudoga va ruh abadiyligiga umuman ishonmaydiganlar kiradi. Ular ham baxtsiz ham umidsiz insonlar. Va-nihoyat, toʻrtinchi guruhga dinga butunlay beparvo, faqat “bugungi kun” bilan yashaydiganlar kiradi. Ular “aqlsiz” va baxtsiz insonlardir, chunki oʻz eʼtiqodsizligi bilan jazolanganlar. Paskal ana shu baxtsizlarga rahmi keladi.

Dinning immanent, ekzistensial xususiyati Paskal “Apologiya ...”sini yozishga majbur qiladi. Bu loyiha ichidan ziddiyatli xususiyatga ega: agar eʼtiqod asoslash va himoyaga muhtoj boʻlsa, u havf ostida qoladi. Shu yyerda “Apologiya...” paradoksi tugʻiladi, buni Paskalning oʻzi ham tushunadi. “Aql yoʻli” uning mantiqiy usullari va argumentlari bilan haqiqiy eʼtiqodga olib kelmaydi, lekin unga yordam beruvchi maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Aql

e'tiqodsizlarni xotirjamligini yo'qotadi, e'tiqod uchun "yumshoq zamin" Yaratadi. Lekin aql o'z quyishqonidan chiqib ketmasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Paskalning g'oyaviy raqibi bo'lgan Voltyer, uning ustidan kuladi. Uni "bolalikda" va nojiddiylikda ayblaydi. Bu argument e'tiqodga olib kelmaydi, lekin o'ylab ko'rishga majbur qiladi. Bunda yutilganda ham, yutqazilganda ham hech narsa yo'qotilmaydi. Bundan tashqari aql insonni har xil "irimchilikdan" xalos etadi. E'tiqod "sog'lom va tushunarli" bo'lishi kerak. Shunday fikr yuradi, go'yoki Paskal "e'tiqodni isbotlab berish mumkinmasligidan ozor chekkandek" va "Apologiya ..." ni o'zi uchun yozgandek. Lekin unda juda chuqur o'ylangan pozitsiya mavjud, hamma narsa o'zining o'rniga ega. U dinga Por-Royal orqali YAnseniyadan kirib kelgan. Buni keyinchalik Vetikan "bid'atchilikda" ayblaydi.

Shunday qilib, Paskalning fikrlar dunyosi keyingi madaniyatga katta ta'sir ko'rsatdi. Lev Tolstoy uni "insoniyat o'qituvchisi" deb atadi. Unga "haqiqatni asrlardan olib o'ta olgan payg'ambar-faylasuf" maqomini berdi. Paskal Leybnits, P.Beyl, Russo, Gelvetsiy, Kant, SHopengauyer, SHelyer va boshqalar g'oyalaridan o'zib keta oldi. Ekzistensialistlar o'z falsafiy g'oyalarini Paskalga borib taqaydilar. Ayniqsa unga "rus qalb dini va metafizikasi" xos. Florenskiy Paskaldan "pravoslavlar bilan yaqinlik nuqtalarini topadi".

**Pyer Gassendi** (1592-1655 yillar) Parijda provansallik dehqon oilasida tug'iladi. U oliy ma'lumotni Ekk universitetida oladi. Keyin falsafa kafedrasiga boshchilik qiladi, lekin tezda siqib chiqariladi. Gassendi faqat faylasuf bo'lib qolmasdan, balki buyuk fizik, astronom va matematik ham edi.

Gassendi o'zining falsafiy qarashlarida qadimgi Yunoniston falsafasiga, ayniqsa, Demokrit va Epikurning atomistik ta'limotiga suyanadi va uni rivojlantiradi. Lekin Gassendi Epikurning qarashlarini bayon qilish bilan birga har qadamda ilohiyotchilik ruhidagi chekinishga yuz o'girardi. Masalan, u Epikurning narsa va hodisalarning tabiiy kelib chiqish haqidagi ta'limotini bayon qilib, dunyo ilohiy Yaratish natijasidir, deydi. U hech narsadan hech narsa paydo bo'lmaydi, degan qoidani inkor qilib, xudo dunyoni yo'qdan Yaratgan, deydi [1, 26]. U Epikurning jonning moddiyligi va o'lishi haqidagi fikriga qarshi chiqib, tanasiz va

o'lmaydigan jon mavjud, deydi. Lekin Gassendining bu ilohiyotchilik qarashlari uning falsafiy materializmni himoya qiduvchi fikrlari bilan qorishib ketgandi. Gassendining ilohiyotchilik ruhidagi cheklanishlarining sababi va maqsadini to'g'ri tushungan Didro: "Bechora Gassendi jafokash tojini kiyishdan saqlanmoq uchun Epikurga xristianlik kulohini kiydirishga majbur bo'lgan edi" [1, 26], — deb yozadi.

Gassendi o'zining falsafiy ta'limotini sxolastikani tanqid qilishdan boshlaydi. Masalan, Gassendi Arastu falsafasini o'rta asr sxolastlari tomonidan soxtalashtirilgani ustida to'xtalib, shunday deydi: "Arastuchilar ichida turli oqimlar mavjud. Foma Akvinskiy izidan boruvchilar va Duns Skott izidan boruvchilar. Lekin ular o'rtasida kurash haqiqat uchun kurash emas. Arastuchilarning bu ikki oqimi uchun ham haqiqat kerak emas, balki sofistika zarur" [1, 26]. Gassendi o'z dunyoqarashida fizika masalalarida sxolastik ta'limoglarni, ayniqsa, ularning substansional shakllar haqidagi ta'limotini keskin tanqid qiladi.

Gassendining ta'limoticha, koinot va ko'rinib turgan dunyo o'rtasida yoki tabiat o'rtasida farq mavjud. Koinot yagona, u cheksiz va abadiydir. U o'zgarmas bir butun bo'lib, faqat uning qismlari o'zgarib turadi, koinotning hayoti esa bu qismlarning abadiy o'zgarib turishidan iborat. Ko'rinib turgan dunyo yoki tabiat koinotning bir qismidir. Uning ibtido va intihosi mavjud. U paydo bo'ladi va yo'qoladi, u doimo aylanib turadi. Unda tug'ilish, yetuklikka yerishish, so'nish jarayonlari mavjuddir. Gassendining ta'limoticha, koinot o'zida ikki tamoyilga yoki boshlang'ich asosga ega. Ular materiya va bo'shliqdir. Materiya hajm, massa, figura, qarshilik, zichlik, og'irlikning asosidir. Gassendining metafizik konsepsiyasi bo'yicha, bo'shliq materiyaning inkoridir. U tanasizlik, hissizlik, harakatsizlik xususiyatlariga ega. Bo'sh makon harakatsiz va moddiy kuchlarning o'zgarishi bilan bog'liq emas.

Materiya, jism murakkab narsadir. Agar koinotda murakkab narsa mavjud ekan, demak, unda murakkab narsalarni barpo qiluvchi sodda narsalar ham mavjud. Bu sodda narsalar cheksiz bo'linmaslik xususiyatiga ega. Agar ular uzluksiz bo'linganida edi, bo'shliqqa aylanib ketardi va narsalarning tanasi bo'lib

qolmasdi. Bo‘linmas bo‘lganlari uchun ham ularni atomlar, deb to‘g‘ri ataydilar. Atomlar, Gassendi ta‘limoticha, dunyoning boshlang‘ich, oddiy, bo‘linmas, yo‘qolmas abadiy unsurlaridir. Ular xuddi shu bo‘linmaslik xususiyatiga ega bo‘lganliklari uchun yo‘qolmasdir. Shunday qilib, Gassendi ham Epikur kabi materiyaning yo‘q bo‘lmasligi tamoyilini olg‘a suradi.

Gassendi o‘rta asr sxolastikasida mavjud bo‘lgan “simpatiya”, “antipatiya” haqidagi ta‘limotga qarshi chiqib, dunyoni tushuntirishning izchil sababiylik qoidasiga amal qiladi. Shuning uchun u sxolastik, ya‘ni dunyoning maqsadga muvofiq Yaratilganligi haqida teleologiyaga qarshi kurashadi. Masalan, Gassendining fikricha, hayvon organizmining a‘zolari avvalo biz tomonimizdan kuzatilayotgan maqsadlar va funksiyalar uchun Yaratilmagan. Uning fikricha, bu a‘zolar tasodifan, hech qanday maqsadga muvofiq bo‘lmagan holda paydo bo‘lgan va keyin o‘zlarining foydaligiga qarab rivojlanadi.

Odamning joni ham, Gassendi ta‘limoti bo‘yicha, mayda, maxsus, harakatchan, olovli atomlarning yig‘indisidan tashkil topgan jismdir. Gassendi ham Epikur kabi jon tanaga ega, chunki u tanaga ega bo‘lmaganda edi bo‘shliq bo‘lib qolardi [1, 27], deydi.

Bo‘shliq harakat ta‘siriga bo‘ysunmaydi, o‘zi ham harakat qilmaydi. Jon esa harakat ta‘sirida ham bo‘ladi, o‘zi ham harakat qiladi. Bu narsa uning tanaga ega ekanini isbot qiladi. Jon sezish qobiliyatiga ega. Gassendi ta‘limoticha, hamma sezgilar, aqliy jarayonlar jon atomlarining harakatidan kelib chiqadi. Jon atomlari tananing hamma qismida mavjuddir. Tananing o‘lishi bilan jon ham o‘ladi.

O‘lim tanadan jon atomlarining chiqib ketishi natijasida sodir bo‘ladi. Lekin o‘lim joi atomlarining yo‘qolib ketishi emas, chunki materiya yo‘qolmasdir. Jon atomlarining ajralib ketishi xuddi suvning bug‘ga yoki havoning alangaga aylanib ketishi kabi bo‘ladi. Obrazli qilib aytganda, jon darg‘a kabi bir yyerda turmaydi. U o‘z tarkibiga ega bo‘lgani uchun butun tanaga tarqalgan. Jon qafasdagi qush emas, balki tananing ozuqasi. Jon faqat tana sog‘ bo‘lgandagina sog‘ bo‘lishi mumkin. Jonning moddiy asosini tashkil qiluvchi tana a‘zolari nosog‘ bo‘lsa, jon ham nosog‘ bo‘ladi.

Insonda fikrlash qobiliyati uning tana a'zolarining o'sishi bilan bog'liq. Ma'lumki, Dekart bilishning asosini aqlning tabiiy turi, intuitsiya tashkil qiladi [1, 27], degan edi. Gassendi esa uning bu fikriga qarshi chiqib, bilishning, fanning asosini sezgilar, tasavvur, tajriba va induksiya tashkil qiladi [1, 27], deydi. Xuddi ana shular ratsional (aqliy) bilishning asosidir. Sezgilar tashqi dunyo ashyolarini bizning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri natijasida sodir bo'ladi.

Tashqi ashyolardan obrazlar ajralib chiqadi va sezgi a'zolarimiz orqali namoyon bo'ladi. Bu obrazlar ham moddiydir, chunki ular ham atomlardan iborat. Bizning sezgi a'zolarimiz tashqi predmetlar ta'sirini mexanik ravishda qabul qilganligi uchun sezgilar hamma vaqt xatosizdir. Bilishda sodir bo'laditan xatolar esa sezgilardan emas, balki aqlning noto'g'ri xulosalaridan kelib chiqadi. Inson ongi hech qanday tug'ma g'oyalarga ega emas. Hatto xudo haqidagi g'oya ham insonda tug'ma emas. Bu shundan ham ko'rinib turadiki, juda ko'p xudoga ishonmaydigan kishilar mavjud. Ilgari sezgida mavjud bo'lmagan biron-bir narsa aqlda ham mavjud emas.

Shunday qilib, bilish nazariyasida Gassendi asosan empirik bo'lgan. Lekin shu bilan birga Gassendi o'zining bilish nazariyasiga Epikur kabi ratsional tomonlarni ham kiritadi. Masalan, u shunday deb yozadi: "Biz bironta xulosa chiqaradigan yoki hukm yuritadigan narsalar haqida dastlabki ochiq tushunchalarga ega bo'lishimiz kerak" [1, 28]. Tabiatni bilib olish masalasi ustida to'xtalib, garchi to'la haqiqatga yerishish mumkin bo'lmasa ham, lekin shunga yaqinroq, shunga o'xshashroq narsaga yerisha olamiz [1, 28], deb ta'kidlaydi u.

Gassendi o'zining ijtimoiy-axloqiy qarashlarida ham Epikur ta'limotini davom ettiradi. Gassendi axloqni o'z falsafasining muhim tarkibiy qismi deb ataydi. Unga mantiq ham, fizika ham xizmat qilishi kerak. Axloq inson hayotini maqsadi haqidagi fandır. Hayotning maqsadi esa farovonlikka, baxt-saodatga yerishishdir.

Gassendi Epikur kabi baxt-saodat deganda xotirjamlik holatini tushunadi. Dono odamning ideal hayoti toshqin daryoga emas, balki daryoning tekis oqimiga o'xshaydi. Lekin u stoiklar kabi xotirjamlik holati deganda karaxtlik, tanballik,

tush ko‘rish, ruhiy mastlikni tushunmaydi, balki Epikur kabi quvonchlar bilan to‘la bo‘lgan hayotiy baxt-saodatni tushunadi. Baxt — bu azoblardan ozod bo‘lish, ruhiy mustahkamlik, o‘limdan qo‘rqmaslik, xudolardan, g‘ayritabiiy sanamlardan qo‘rqmaslik va hokazo. Eng oliy farovonlik — bu ilk asoslarni bilish. Bu farovonlik faylasuflarga xos bo‘lgan farovonlikdir. Gassendi o‘zining sotsiologik qarashlarida jamiyat, davlat, huquq va qonunlarning asosi ijtimoiy shartnoma ekanligini e‘tirof etadi.

**Jon Lokk** 1632 yilda puritanlar oilasida tug‘ildi. Uning otasi yurist bo‘lib, parlament tarafdori edi. Lokkda sxolastik falsafaga tanqidiy munosabat va tabiiy fanlarga, ayniqsa, tibbiyot va kimyoga qiziqish juda yerta paydo bo‘ldi. Lokk o‘z oldiga intellektual “tozalash”ni amalga oshirish, ya’ni bilishni tanqidiy tekshirishni maqsad qilib qo‘ydi. U aynan axloqiy va diniy muammolarga doir tunganmas bahslar uni qo‘llanuvchi tushunchalarning ko‘pchiligi umidsiz darajada noaniq va noto‘g‘ri emasmi, degan savolni berishga majbur qilganini tan oladi. Lokk faylasuflar ham, tabiat hodisalarini tadqiq qiluvchi olimlar singari, tajriba yordamida qadam baqadam olg‘a yurishlari kerak, deb hisoblaydi. “Buyuk” muammolarni ko‘rib chiqishga o‘tishdan oldin, o‘z vositalarimiz, ya’ni o‘z tushunchalarimizni o‘rganib chiqishimiz kerak. Shuning uchun Lokk bilishni tanqid qilish va tilni tahlildan o‘tkazishdan boshlaydi. Ammo “vositalar”ga bo‘lgan qiziqish uning aniq muammolar bilan shug‘ullanishiga ham halaqit bermaydi. Lokk pedagogika va siyosiy nazariyaning klassiklaridan biri hisoblanadi.

Jon Lokk shaxsi orqali butun ingliz ilg‘or fikri o‘z najot nuqtasiga ega bo‘ldi. Lokk davrning asosiy ehtiyojlarini o‘zining iqtisodiy, siyosiy, pedagogik va umumfalsafiy nazariyalarida ifodaladi. Oksfordda Lokk Yangi ilmiy yo‘nalish tarafdorlari bilan yaqinlashadi. Oksford universitetida sxolastik ta’limotlar ustivor edi. Bu yo‘nalish unga qarshi turadi. Lokk Jon Uilkinson ilmiy faoliyatiga katta qiziqish bilan qaraydi. “U ilmiy eksperimentlarga o‘ch odam edi. Bunday inson Bekon davridan buyon bo‘lmagan”. Richard Louve kasallik sabablarini eksperiment orqali o‘rgangan, u birinchilardan bo‘lib qon quyish amaliyotini qo‘llaydi. Lokk ham tibbiyotga qiziqishi shu odam shaxsi bilan bog‘lanadi.

Oksfordda Lok Robert Boyl bilan ham yaqindan tanishadi va turli tajribalar olib boradi. Boyl Lokkda Dekart va Gassendi ta'limotlariga qiziqish uyg'otadi. 1667 --yilda Lokk lord Eshlining (1672 --yilda graf SHEftsberi bo'ladi) o'g'lini tarbiyachisi va uy shifokori bo'lib ishlash taklifini qabul qiladi. Siyosiy faoliyatga beriladi, lekin ilmiy tadqiqotlarini tashlamaydi. 1667 --yilda u Boylga yozgan maktubida shunday deydi: "Hozirgi maqoqmim kimyo bo'yicha olib borayotgan tajribalarimni bir oz orqaga surib yubordi, lekin men bu tajribalarni davom ettirishga oshiqyapman".

1668 --yilda Lokk Qirollik Jamiyatiga a'zo bo'ldi. 1669 --yilda ana shu jamiyat Kengashiga saylanadi. Lokk asosan tabiatshunoslik, tibbiyot, iqtisodiyot, pedagogika, cherkov va davlat munosabatlari masalasi, diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi masalalari bilan shug'ullanadi. Graf Eshlining talabiga binoan Lokk 1667 --yilda "Bag'rikenglik haqida tajribalar" asarini yozadi. Mazkur asarda Lokkning diniy bag'rikenglik haqidagi konsepsiyasi to'liq ifodalanadi. "Tabiat qonunlariga oid tajribalar" nomli asarida Lokk siyosiy jamiyat, davlatning tabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyasini bayon qiladi. Bu asar lotin tilida yoziladi, keyinchalik Lokkning vafotidan so'ng lotin matnlari bilan birga ingliz tiliga tarjima qilib, nashr qilinadi.

Lokkning asosiy qiziqishlarini ichidan bilish nazariyasiga bo'lgan intilish ajralib chiqq boshlaydi. Aynan bilish nazariyasi orqali Lokk falsafiy fikr taraqqiyotida chuqur iz qoldiradi. Lok inson bilimi haqidagi muammolar ustida 16 yil izlanadi. Natijada uning "Inson aqli haqidagi tajriba" asari dunyoga keladi. Bu asarni yozishda mavjud fanlarning kashfiyotlariga tayanadi.

Angliyada Lokk siyosatchi sifatida mashhur, chunki u o'z asarlarida 1688 yilgi burjua revolyusiyasining ikki hukmron sinf burjuaziya va Yangi dvoryanlarning kelishishi (murosasi) bilan yakunlanganligi qonuniy jaryon ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Haqiqatan ham burjua demokratiyasining nazariyotchisi sifatida bir qator g'oyalarni ilgari surgan. Jumladan, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hukumatlariga bo'lish to'g'risidagi fikrni birinchi bor Lokk o'rtaga tashlagan. Ijro etuvchi hukumat, ungacha, xalq

saylaydigan qonun chiqaruvchi hukumat, ya'ni parlament nazoratida bo'lishi kerak. Ko'rinadiki, Lokk xalqning saylash huquqi to'g'risida ham birinchi bo'lib so'z yuritgan. Bu g'oya keyinchalik fransuz ma'rifatparvari J.J.Russo tomonidan rivojlantirilgan. Mustaqil O'zbekistonda demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy davlat qurish jarayoni borayotgan bugungi sharoitda bu ta'limot yanada ahamiyatlidir.

Lokk bilish masalasi ustida ham atroflicha fikr yuritgan. «Inson aqli to'g'risida tajriba» (1690 yil) nomli asarida u «tug'ma g'oya»lar haqidagi qarashlarni tanqid qiladi, har qanday g'oyaning yagona asosi tajribadir, degan fikrni aytadi va uni isbotlashga harakat qiladi. Tajriba, uningcha, ikki xil: ichki va tashqi bo'ladi va har ikkisi o'z manbaiga ega. Ichki tajribaning manbai-refleksiya bo'lib, u fikrlash, his-hayajon va ehtiros bilan bog'liq. Tashqi tajribaning manbai sezgi bo'lib, u insondan tashqaridagi narsa-hodisalarning sezgi a'zolariga ta'siri natijasida vujudga keladi.

Lokk narsa-hodisalarning sezgi a'zolariga ta'siri haqida fikr yuritar ekan, narsalarning sifatini ham birlamchi va ikkilamchi sifatlarga bo'ladi. Zichlik, uzunlik, harakat kabilar birlamchi sifatlarga bo'lib, narsalarning o'ziga xosdir. Rang, ta'm, ovoz kabilar ikkilamchi sifat bo'lib, narsalarning o'ziga xosdek bo'lib ko'rinsa-da, aslida ularda bo'lmaydi: ularda sezgi uyg'otish qobiliyati bor, xolos. Jon Lokk ingliz falsafasida hissiy bilish (empirizm)ning vakilidir. U «tug'ma g'oyalar» mavjudligini rad etib, bizning barcha bilimlarimizni biz tajriba va hissiy bilishdan olishligimizni ta'kidlaydi. Inson «sof lavha» sifatida tug'iladiki, unga hayot o'zining «yozuvlari»ni, ya'ni bilimlarni yozadi. Dekart ratsionalizmiga qarama-qarshi ravishda, Lokk bilishning birdan bir manbai hisdir (sensualizm) degan ta'limotni asosladiki, u bilimlarning barcha mazmunini his-tuyg'u a'zolaridan keltirib chiqarib, uni hissiy bilishning unsurlarining jami hisoblar edi. «Ilgari his-tuyg'uda bo'lmagan hech narsa, aqlda ham bo'lmaydi», - deb ta'kidlagan edi Lokk. «Agar hamma narsa sezgilar orqali namoyon bo'lsa, u holda inson biron-bir sezgi a'zosi bilan his qila olmaydigan xudo, jannat va do'zax kabi tushunchalar qayyerdan paydo bo'lgan?» – degan savolga javob berishda Lokk

yuqorida aytilgan ichki tajriba-refleksiyaga, ya'ni ichki o'z-o'zini anglashga tayanadi va bu masalada ham kelishish (murosa) yo'lini tanlaydi.

Lokk falsafasi nafaqat britaniya empirizmi tarixida tayanch nuqta bo'ldi, balki Yevropada materialistik falsafa va ilmiy bilish rivojida katta rol o'ynadi. Angliyadagi oqimlar hamda boshqa maktablar Lokk ta'limotining ayrim qirralarini qabul qildilar, ayrimlarini tanqid tanqid ostiga oldilar. Jon Lokkning bilish nazariyasi sensualistik empirizmga asoslangan holda rivojlandi. Shu bilan birgalikda Lokk jamiyatning kelib chiqishi, davlat boshqaruvi hamda diniy bag'rikenshlik haqidagi ta'limotlari keyingi fransuz, nemis faylasuflarining falsafiy qarashlarini rivojida manba bo'lib xizmat qildi.

Jon Lokk bilish masalasi ustida ham atroflicha fikr yuritgan. «Inson aqli to'g'risida tajriba» (1690-yil) nomli asarida u «tug'ma g'oya»lar haqidagi qarashlarni tanqid qiladi, har qanday g'oyaning yagona asosi tajribadir, degan fikrni aytadi va uni isbotlashga harakat qiladi. Tajriba, uningcha, ikki xil: ichki va tashqi bo'ladi va har ikkisi o'z manbaiga ega. Ichki tajribaning manbai-refleksiya bo'lib, u fikrlash, his-hayajon va ehtiros bilan bog'liq. Tashqi tajribaning manbai sezgi bo'lib, u insondan tashqaridagi narsa-hodisalarning sezgi a'zolariga ta'siri natijasida vujudga keladi.

Lokk narsa-hodisalarning sezgi a'zolariga ta'siri haqida fikr yuritar ekan, narsalarning sifatini ham birlamchi va ikkilamchi sifatlarga bo'ladi. Zichlik, uzunlik, harakat kabilar birlamchi sifatlarga bo'lib, narsalarning o'ziga xosdir. Rang, ta'm, ovoz kabilar ikkilamchi sifat bo'lib, narsalarning o'ziga xosdek bo'lib ko'rinsa-da, aslida ularda bo'lmaydi: ularda sezgi uyg'otish qobiliyati bor, xolos. «Agar hamma narsa sezgilar orqali namoyon bo'lsa, u holda inson biron-bir sezgi a'zosi bilan his qila olmaydigan xudo, jannat va do'zax kabi tushunchalar qayyerdan paydo bo'lgan?» – degan savolga javob berishda Lokk yuqorida aytilgan ichki tajriba-refleksiyaga, ya'ni ichki o'z-o'zini anglashga tayanadi va bu masalada ham kelishish (murosa) yo'lini tanlaydi. Jon Lokkning ta'limoti ko'p jihatlardan har xil g'oyaviy yo'nalishlar kesishuvida yotadi. Uning falsafasi ildizlari tabiiy huquq konsepsiyasi tarafdorlari hamda nominalistlar (Okkam)ga

borib taqaladi. Unga ratsionalist Dekart ta'sir ko'rsatdi, ammo u karteziyanlik ratsionalizmiga qarshi empiristik dalillar keltirdi. Lokk Ma'rifat davrining darakchisi va shu bilan bir vaqtda, Ma'rifat davri falsafasining ayrim aspektlarini qattiq tanqid qilgan falsafiy oqim – Britaniya empiritsizmining o'tmishdoshi edi.

Ratsionalistlar aniq tushunchalar bizga reallikni bilish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Agar biz aniq tushunchaga ega bo'lsak, ishonchli bilimga ega bo'lamiz. Ular inson o'z aql-idrokdan to'g'ri foydalangan taqdirda to'g'ri bilim olishi mumkinligiga juda ishonganlar. To'g'ri, ratsionalist Dekart shubhaga asoslangan, ammo unga bilishni to'g'ri yo'lga solish vositasi sifatida qaragan.

Ammo ratsionalistlar nima aniq va oydin, ya'ni to'g'ri ekanligi yuzasidan bahslashadilar. Bu bahs-munozaralar, o'z navbatida, ratsionalizmga qarshi dalillarni ilgari surish uchun qulay zamin yaratadi. Lokkdan Kantgacha ilgari surilgan bunday standart dalillardan biri tushunchalarni anglab etish biron-birn real narsani muqarrar anglab etishga olib kelmasligi haqidagi dalil edi. Bizning o'qish-yozishni biladigan ongli mushuk haqidagi tushunchamiz bunday mushukning mavjudligini anglatmaydi. Xuddi shu singari, mukammal mavjudot, Xudo haqidagi tushunchadan U mavjud degan xulosa kelib chiqmaydi. Biz tushunchadan mavjudlik haqida xulosa chiqara olmaymiz.

Lokk shubhadan faqat xatosiz bilim olishga olib kelishi mumkin bo'lgan bir martalik vosita sifatida emas, balki loimiy tekshiruv vositasi sifatida ham foydalandi. Zotan bilish jarayoni uzil-kesil emas, balki ayrim oraliq natijalarni beradi. Shuning uchun bizning vazifamiz, tabiiy fanlarda bo'lgani singari, mavjud bilimni doimiy va tanqidiy takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Uyg'onib kelayotgan tabiiy fanlarning ta'siri ostida Lokk, ratsionalistlar Dekart, Spinoza va Leybnitsdan farqli o'laroq, boshqa qoida va bilish ideallariga keladi. Lokkda empirik fan bo'lgan tibbiyotga qiziqish ayniqsa kuchli bo'lganini bilamiz. Ma'lumki, bu fanda kuzatish va tasniflash asosiy o'rin tutadi. Tajribaga asoslangan nazariyaga skeptik yondashgan tibbiyot fani va falsafa o'rtasidagi aloqa antik davrdanoq mavjud bo'lgan.

XVII-XVIII asrlardagi ham ratsionalistlar, ham empiristlarga mansub ko'pgina faylasuflar singari, Lokk ham epistemologiya bilan juda ko'p shug'ullanadi. Ular singari, Lokk ham insonning bilishi nimalarga yerishishi mumkinligini aniqlashga urinadi. Inson bilishining chegarasi qayerda? Bu juda muhim masala. Zotan inson bilishining chegaralarini aniqlab, biz o'zimizni to'g'ri bo'lmagan narsaning to'g'riligiga bo'lgan ishonchdan xalos etishimiz mumkin. Bilishni tanqid qilgan ratsionalistlarga epistemologiya falsafiy sistemalarni Yaratish uchun istehkom bo'lib xizmat qiladi. Lokk bilan boshqa empiristlar uchun esa, aksincha, tyerapevtik xususiyatga ega bo'lgan va fanning rivojlanishiga imkoniyat Yaratadigan bilimning tanqidi mustaqil maqsad bo'lib hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqqi, bilishning empiritsistik tahlili bizning bilish qobiliyatlarimizga nisbatan ehtiyotkorlik bilan qarashga olib boradi. Faqat tushunchalar yordamida yerishiladigan tushunish nochor va muammoli bo'ldai. Bilimni haqiqiy egallash olimlar bilishni tekshiruvlar va izchil yaxshilash orqali ilgari suruvchi empirik fanlarda ro'y beradi.

Lokkning epistemologik "tozalash" ishlari faqat falsafiy bilishgagina qaratilmagan. U faqat bilish nimaligini aniqlashga urinib qolmay, balki bilimning o'sishini ta'minlash, tabiatshunoslikdagi bilishning taraqqiyotiga yo'l ochishga ham intiladi. Tushunchalarga aniqlik kiritish va ularni umumiy ahamiyatga moliklik nuqtai nazaridan tekshirish zarurligini qayd etgan va epistemologiyaning maqsadi bilishning taraqqiyotini ta'minlashdan iborat, deb bilgan Popprening pozitsiyasiga solishtirish mumkin. Falsafa fanlar malikasi emas, biroq u tabiatshunoslikka – masalan, uning tushunchalariga aniqlik kiritib va yolg'on bilimlarni fosh etib – yordam berishi mumkin.

Tushunchalarga aniqlik kiritish juda ko'p sabablarga ko'ra zarur. Agar biz noaniq tushunchalarni qo'llasak, boshqalar biz nimani nazarda tutayotganimizni tushunishga qiynaladi. Modomiki, biz aytgan gaplar har xil talqin qilinishi mumkin bo'lib, ulardan biri to'g'ri, ikkinchisi yolg'on deb aytishga asos mavjud ekan, unda biz qaysi talqinni nazarda tutganimizni aniqlamagunimizcha aytganimizni qattiq

turib ma'qullay olmaymiz. Shuning uchun ham intellektual munozara va ilmiy faoliyatda fikrni aniq ifodalash qat'iy talab qilinadi.

Lokkning fikricha, olimlar tili ham osongina abstrakt va noaniq so'z va iboralar o'yiniga aylanib ketishi mumkin. Bir qarashda bu so'z va iboralarda chuqur donishmandlik zahirdek tuyuladi, ammo aslida ular tilni suiste'mol qilishdan boshqa narsa emas. Aslida siyqa va o'ta bahsli bo'lgan bu tumtaroq so'z va iboralar ularni qo'llovchi shaxslarni chinakam donishmand qilib ko'rsatishi mumkin. O'z navbatida, bu soxta donishmandlarni eshitgan odamlar o'zlarini nodon va omi deb his etishlari, ularni bilimdon sifatida qabul qilishlari ham mumkin. Xullas, til bizni aldashi mumkin. Bu so'zlovchilarga ham, tinglovchilarga ham taalluqli. Noaniq va abstrakt tushunchalarni qo'llovchilar odatda buni yaxshi niyatda qiladilar. Shuning uchun ularni tilni noto'g'ri qo'llayotganlariga ishontirish ko'pincha juda qiyin bo'ladi.

Lokk uchun noaniq spekulyatsiyalar chuqur haqiqatday tasavvur uyg'otishi mumkinligiga oddiy misol bo'lib substansiya, tug'ma g'oyalar, cheksizlik va shu kabilar terminlarning an'anaviy falsafiy qo'llanishi xizmat qiladi. Shuning uchun adashtiruvchi abstraksiyalarga qarshi kurash muhim tyerapevtik faoliyat hisoblanib, uning davomida tilni qo'llovchilar yanglish fikrlardan xalos bo'lishlari mumkin. Lokkning Ma'rifat davriga yaqinligi shu yyerda yaqqol namoyon bo'ladi: tilni oydinlashtirish myeros bo'lib qolgan yolg'on tasavvurlardan xalos bo'lish, qutulishga xizmat qiladi. U insonni noaniq va noto'g'ri fikrlarga asoslangan fanatizmdan xalos etadi. U ham omma orasida, ham fanda aqlga muvofiq muloqotga yo'l ochadi.

Xullas, biz Lokk XVII asr oxirida Angliyaning ma'rifatparvar va taraqqiyparvar burjuaziyasi muhitida shakllangan Yangi ilmiy madaniyat ilhomchisi bo'lib maydonga chiqqanini ko'rdik. U Ma'rifat davrining boshlanganidan dalolat beradi. Lokkning bilishni tanqidi ham tilga aniqlik kiritishni, ham empirik asoslashni talab qiladi. U Lokkning bilishga doir umumiy qarashiga bog'liq. Insonning bilish manbai masalasiga to'xtalib, Lokk shunday deb ta'kidlaydi: "U [aql] mulohaza va bilim uchun barcha materialni qayyerdan oladi?"

Bu savolga men bitta so‘z bilan javob beraman: tajribadan. Bizning barcha bilimimiz tajribaga asoslanadi va oxir natijada tajribadan kelib chiqadi” [6, 154].

Tafakkur va bilishning materiali tajribadan kelib chiqishiga Lokkning ishonchi komil. Binobarin, biz bu materialga asoslanmagan bilim to‘g‘ri bilim emas, deb xulosa chiqarishimiz kerak. Bunday hollarda biz aytgan narsalarni esa bilim sifatida tan olib bo‘lmaydi. Ammo tajriba nima? Bu so‘zning o‘zi ham ko‘p ma‘nolidir. Biz, masalan, diniy tajriba, kasbiy tajriba va sof hissiy tajriba haqida gapiramiz. Lokk tashqi idrok (sezish - *sensation*) sifatidagi tajribani va bizning mental harakat va holatlarimizning ichki idroki (refleksiya - *reflection*) sifatidagi tajribani farqlaydi. Biz bu tajriba yordamida ega bo‘lgan narsalar mohiyatan oddiy g‘oyalar (taassurotlar)dir. Lokk bu tajriba haqida asosiy kognitiv elementlar, ya‘ni “atomar” hissiy taassurotlar mavjudligini nazarda tutuvchi idrok qilish va introspeksiya psixologiyasi singari gapiradi.

Umuman olganda, Lokk bunday asosiy tajribaga passiv ravishda ega bo‘linadi, deb hisoblaydi. Keyin passiv ravishda ega bo‘lgan oddiy g‘oyalar aql-idrok tomonidan faol ishlanadi. Shunday qilib, odamlarda murakkab g‘oyalar (tasavvurlar)ning boy xilma-xilligi paydo bo‘ladi. Ularning bir qismi muntazam ravishda birga paydo bo‘luvchi oddiy g‘oyalar tarkibiy tasavvurlarga olib borishi tufayli yuzaga keladi. Masalan, uyning tomlari haqidagi alohida muntazam g‘oyalar umuman uy haqidagi tasavvurlarga olib keladi. Kentavr, substansiya yoki xususiy mulk g‘oyasi singari murakkab tasavvurlarni hosil qilishda asosan aql-idrok ijodiy rol o‘ynaydi. Bunday yondashuvda material sifatidagi tajribaga, ya‘ni oddiy g‘oyalarga asoslangan tafakkur va bilim bu g‘oyalardan farqli va ko‘proq nimanidir qay darajada ma‘lum qiladi, degan savol prinsipial ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, yo savol o‘zining asosidagi idrok qilingan g‘oyalarning yig‘indisidan boshqa narsa emas, yoki unda bundan ortiqroq nimadir mavjud.

Bu o‘rinda biz Gobbs ta‘limotiga o‘xshash reduksiya muammosiga duch kelamiz. Soat o‘z qismlariga nisbatan reduksiyalashadimi? Agar biz bilish o‘zining qismlariga nisbatan reduksiyalashadi, deb javob bersak, unda radikal empiritsistik pozitsiyani egallagan bo‘lamiz. Faqat tajribaga to‘liq bog‘liq bo‘lgan narsagina

bilish hisoblanadi. Bundan tashqari, tajriba idrok qilishning oddiy g'oyalari sifatida talqin qilinganida, bu tezis faqat idrok qilishning oddiy (ichki va tashqi) g'oyalari yordamida to'liq va butkul tahlil qilingan narsagina bilish hisoblanishini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, agar biz bilish jarayoni idrok qilishning oddiy g'oyalaridan boshlanadi (bu ma'noda tajriba bilishning materiali hisoblanadi), bilish esa ularning yig'indisidan sifat jihatidan farqli nimanidir ham nazarda tutadi, deb ko'rsatsak, unda biz boshqa tezisga kelimiz. Uning nisbatan aniq ta'rifi idrok qilishning oddiy g'oyalari materialiga asoslangan bilishning shakllanishi qanday tushunilishiga bog'liq bo'ladi.

Brinchi muqobil qator murakkab muammolarning qo'yilishiga olib keladi. Masalan, ulardan biri o'z-o'zini refyerenzialash muammosi bilan bog'liq: bu tezisning o'zi idrok qilishning oddiy g'oyalarga reduksiyalanishi mumkinmi? Bu muqobildan yana shu xulosa kelib chiqadiki, Lokkning epistemologiyasi (tilga olingan empiristsik talqinda) uning aniq ratsionalistik elementlarga, masalan, inson huquqi va xususiy mulk tushunchalariga ega siyosiy nazariyasiga nisbatan keskin oppozitsiyada bo'lar edi. Shunday qilib, Lokk pozitsiyasi talqinidagi ikkinchi muqobil bilan kelishish uchun asoslar mavjud, aynan: bilish tajribadan (idrok qilishning oddiy g'oyalari va refleksiyaning) paydo bo'ladi, ammo aql-idrok bu materialni tinimsiz ishlaydiki, bu oddiy g'oyalardan sifat jihatidan farqli nimaningdir paydo bo'lishiga olib keladi. (Soat, garchi qismlardan tashkil topsada, ulardan sifat jihatidan farq qiladi).

Bu epistemologiyaga muvofiq, insonning aql-idroki bilishning shakllanishida faol o'rin tutadi. G'oyalarning umumiy ahamiyatga molikligi masalasiga kelganda, tekshiruv ularning turli elementlarini idrok qilishning oddiy g'oyalarga solishtirishdan iborat bo'ladi. Ammo bu tekshiruv murakkab g'oyalar mohiyatan idrok qilishning oddiy g'oyalari yig'indisi hisoblanishini anglatmaydi. U faqat idrok qilishning oddiy ma'lumotlari (*simple experiences*) matyerila sifatida bilish uchun zarur hisoblanadi, ammo bilish uchun yyetarli shart bo'lmaydi. Agar bu shart bajarilmasa, unda biz bilishga ega bo'lmaymiz.

Misol tariqasida Lokk cheksizlik tushunchasini ko‘rib chiqadi. Bu tushuncha bilishni ifodalaydimi yoki soxta bilishnimi? Bu savolga javob berish uchun biz bu tushuncha qanday yuzaga kelganini o‘rganishimiz kerak bo‘ladi. Bunda biz, Lokkning fikricha, cheksizlikka doir bevosita tajribamiz yo‘qligini ko‘ramiz. Biz tajribada, aniqrog‘i, idrok qilish orqali ega bo‘ladigan bilim, masalan, har qanday oraliq ma‘lum kattalikka oshirilishi mumkinligiga taalluqli bo‘ladi. Agar biz bu jarayon uzluksiz, chiziqqa Yangi-Yangi oraliqlarning tinimsiz qo‘shilishi bilan davom etishini tasavvur qilsak, unda cheksiz chiziqning “chegara tushunchasi”ga kelamiz. Tegishli fikr va mulohazalarni zamonga ham tatbiq qilish mumkin. Lokkning fikricha, bu bizning cheksizlik haqidagi tushunchamiz asosan o‘zini oqlashini ko‘rsatadi, basharti, agar biz bu tushunchaga tajribaga ko‘ra mavjud bo‘lgan asoslardan ortiq ma‘no yuklamasak. Masalan, cheksiz nimadir mavjud, deb uqtirmasligimiz kerak. Biz faqat cheksizlikni mavjud tajribani umumlashtirish yo‘li bilan tasavvur qilishimiz mumkinligini uqtirish va shu yo‘l bilan olingan cheksizlik tushunchasidan foydalanish huquqiga egamiz.

CHeksizlik tushunchasining aniq va oydinligi uning epistemologik ma‘qul bo‘lishini kafolatlamaydi. (Bu tanqid tushunchaning aniq va oydinligi u belgilangan mazmunning mavjud bo‘lishiga olib keladi, degan Dekartning qoidasiga qaratilgan). Biz faqat empirik guvohliklar bo‘lgan taqdirdagina mavjud narsalar haqida gapira olamiz. Bilishni tekshirish shaxsiy tajribaga emas, balki empirik asoslashlarga tayanadi. Bu yyerda shaxsiy belgilarimizning aniqligi yyetarli emas. Idrok yoki introspeksiyaning tekshirilishi zarur.

Lokkning bilish paydo bo‘lishiga doir qarashini quyidagicha tavsiflash mumkin. Biz dunyoga kelganimizda, toza qog‘oz varag‘iga (*tabula rasa*) o‘xshagan bo‘lamiz. Bizda hech qanday “tug‘ma g‘oyalar” bo‘lmaydi. Biz tashqi narsalardan narsalarning haqiqiy xossalari va ularga odamlar qo‘shuvchi hissiy sifatlardan hosil bo‘lgan idrok qilish g‘oyalari (*simple ideas of pyerception*)ni qabul qilamiz. Mental opyeratsiyalarni amalga oshirish qobiliyatimiz tufayli biz refleksiyaning oddiy g‘oyalariga ham ega bo‘lamiz. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu materialdan aql-idrok murakkab tarkibli g‘oyalarning har xil turlarini

shakllantiradi. Natijada biz idrok qilishning oddiy g'oyalari va ularga bog'lanmaydigan refleksiyaga asoslanuvchi bilishga kelamiz.

Lokk davrida odatda birlamchi va ikkilamchi sifatlar farqlangan. Dunyoning mexanistik manzarasi doirasida tashqi obyektlar faqat ko'lam, shakl, qattqlik singari xususiyatlarga, ya'ni narsalarning asosini tashkil qiluvchi birlamchi sifatlarga ega, deb hisoblash tabiiy bo'lgan. Bizning sezgi organlarimiz bu birlamchi sifatlardan tegishli g'oyalar shaklida to'g'ri nusxa ko'chira oladi. Ammo bunga qo'shimcha ravishda biz sezgi organlarimiz yordamida ta'm, hid, rang, harorat va h.k. idrok qilamiz. Ular narsalarning tegishli birlamchi sifatlarga bevosita asoslanmagan ikkilamchi sifatlar hisoblanadi. Hissiy, yoki ikkilamchi, sifatlar bizning sezgi organlarimizga narsalar birlamchi sifatlarining ma'lum o'rni va uyg'unligi hamda narsalar o'rtasidagi miqdoriy kuchlarning harakati tufayli paydo bo'ladi. Hissiy sifatlarning subyektivligi tezisi shundan iborat bo'ladi: hissiy sifatlar bizga, ya'ni subyektga bog'liq bo'ladi.

Tabiiyki, hissiy sifatlar (masalan, rang) bilan birlamchi sifatlar (masalan, ko'lam)ni faqlash asosli bo'ladimi, degan savol tug'iladi. Ko'lamni rangsiz tasavvur qilib bo'ladimi? Agar tasavvur qilib bo'lmasa va agar biz shu bilan bir vaqtda rang biluvchi obyektga bog'liq xususiyat hisoblanadi, deb o'ylasak, unda birlamchi sifatlar (masalan, ko'lam) insonga bog'liq bo'lmaydi, deb aytish muammoli bo'ladi. Biroq, agar barcha xususiyatlar, shu jumladan, birlamchi sifatlar ham, biluvchi obyektga bog'liq bo'lsa, unda biz idealizmga kelamiz: biz tabiatda obyektiv mavjud bo'lgan xususiyatlar, ya'ni narsalardagi xususiyatlar, subyektga bog'liq bo'lmagan xususiyatlar haqida bo'lak gapira olmaymiz. Shunga o'xshash masalalar ingliz empiritsizmi (Berkli, Yum)ning rivojlanishiga turtki bergan omillaradan biri bo'ldi.

Biz, shuningdek, agar ko'z to'r pardasi (va boshqa sezgi organlari)dagi hissiy taassurotlar bilishimizning tayanch va yagona asosi ekanligi rost bo'lsa, unda qanday qilib biz tashqi narsalar haqida biror narsa bila olamiz, deb so'rashimiz ham mumkin. Agar biz atrofimizdagi o'rmonda daraxtni emas, faqat ko'zning to'r pardasida "daraxt obrazi"ni ko'rsak, unda biz o'rmonda daraxtlar

bo'lishini komil ishonch bilan bila olmaymiz. Shuning uchun tashqi narsalarni hissiy taassurotlariga bilishning tayanch nuqtasi sifatida qaraydigan epistemologik model xiyla muammoli hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlar reprezentativ realizm, ya'ni tashqi narsalar ongimizga bog'liq bo'lmagan holda majudligi (epistemologik realizm), ammo bu narsalarni biz faqat sezgi organlarimizdagi manzaralar, tasavvurlar yordamidagina bila olishimizni uqtiruvchi epistemologiyaga qarshi standart tanqidga misol bo'ladi. Biz tashqi dunyoni qanday bilishimizni tushuntirishga da'vogar bo'lgan bilishning bu modeli shunga olib keladiki, biz bu dunyoga yaqinlashish imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Lokkning epistemologiyasiga qarshi shunga o'xshash dalillar keyinchalik empiritsistlar (Berkli) tomonidan ham ilgari surildi. Nihoyat, idrok qilishning oddiy g'oyalari nima ekanligi ham noaniq. Bu kitobni o'qiyotganimda idrok qilishning oddiy g'oyasi nima bo'ladi: kitobning o'zimi, konkret sahifami, bitta satrmi, bitta harfmi, harfning bir qismimi yoki boshqa biror narsami? Shuning uchun ham Lokk qo'llagan g'oya so'zining ikki ma'noligini qayd etish qabul qilingan. Qisman u tushunchaga, qisman – bevosita hissiy taassurotlarga ishora qiladi.

Umuman olganda, murakkab, tarkibli g'oyalar ikki xil bo'ladi. Ularning birinchisi tashqi dunyodagi narsa va hodisalarga, ikkinchisi – tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarga tegishli hisoblanadi. Tarkibiy g'oyalarning ikkinchi turini bilish tekshiruvidan o'tkazish ularning muvofiqlik darajasini, ya'ni g'oyalar qay darajada bir-biriga mosligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Birinchi turni tekshirish masalasiga kelganda, bundan tashqari ularning oddiy g'oyalarga mosligini aniqlash talab etiladi. Lokk etika va matematika aksiomalarini tekshirish muhim deb hisoblaydi [6, 24-26]. U o'ziga xudo va substansiya tushunchalari hachida gaprishga imkon beradi, ammo tarkibiy g'oyalarni ifodalovchi barcha tushunchalar tahlilga muhtoj, deb uqtiradi. Bu yaxshi fazilat burch, kuch, substansiya singari tushunchalarga taalluqli.

Lokk qarashlarining muhim jihati uning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi nazariyasidir. Birlamchilar kabi, ikkilamchi sifatlar ham tashqi tajriba

asosida qo'lg'a kiritilgan g'oyalarga taalluqlidir. Birlamchi sifatlar bu makon, miqdor (massa), harakat va hokazolardir. Ularni u obyektiv ravishda mavjud deb hisoblaydi. Ikkilamchi sifatlarning kelib chiqishi his-tuyg'u a'zolarining xususiyati bilan bog'liqdir. Ularga Lokk is, ta'm, rang va boshqalarni taalluqli deb biladi. Bu xususiyatlar faqat subyektiv ravishdagina mavjuddirlar. O'sha zamondayoq ma'lum bo'lgan ediki, tovushlar havoning tebranish tufayli kelib chiqadilar, nur tarqalishining to'liqlik va korpuskulyar nazariyasi ishlab chiqilgan edi. Bundan Lokk shunday xulosaga kelgan ediki, is, ta'm va rang faqat insoniy idrokkagina xosdir. Oydinlik darajasi nuqtai nazaridan u bilimning uch turini ajratib ko'rsatdi: *hissiy*, yoki yakka ashyolar haqida bilim beruvchi boshlang'ich bilim; namoyishkorona yoki daliliy, xulosa vositasida chiqariladigan bilim, masalan, solishtirish, taqqoslash va tushunchalar munosabati orqali aniqlanadigan bilim; ichki tuyg'u (intuitiv) bilimi - uning oliy turi - aql orqali uning bir-biriga bevosita muvofiqligi yoki muvofiq kelmasligi haqidagi bilim. Lokk belgilarning umumiy nazariyasi sifatida semiotika tushunchasini ilmiy istilohga kiritdi.

Jon Lokk o'z qarashlarida tabiiy huquq, ijtimoiy shartnoma, xalq suvereniteti, shaxsning ajralmas erkinliklari, hokimiyatlar muvozanati, zolim hukmdorga qarshi qo'zg'olonning qonuniyligi va boshqa g'oyalarni rivojlantirdi.

Lokkning fikriga ko'ra, davlat vujudga kelgunicha kishilar tabiiy holatda bo'lishgan. Bu paytda "barchaning barchaga qarshi urushi" bo'lmagan Individlar o'z mulklarini tasarruf etishda va shaxsiyatlarini amalga oshirishda hech kimdan ruxsat so'rashmagan va hech kimga bog'liq bo'lishmagan. Bu holda tenglik hukmronlik qilgan, "unda har qanday hokimiyat va har qanday huquq o'zaro bo'lgan hamda hech kim boshqadan ko'p narsaga ega bo'lgan.

Lokkning fikricha, davlat kishilarning o'zlari ishlab chiqqan va ular o'rtasidagi nizolarni hal etish hamda jinoyatchilarni jazolashga vakolatli bo'lgan sudlov instansiyalarini Yaratuvchi umumiy qonun ostida birlashuvidir. Davlat kishilarni boshqa turdagi jamoalaridan (oila, xo'jalik va mulkdorlar birlashmalari va h.k.) siyosiy hokimiyatni aks ettirishi bilan farqlanadi, ya'ni jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi (hamda turli sanksiyalarni ko'zda tutuvchi) qonunlar

Yaratish huquqiga ega, ular esa mulkni saqlash va muvofiqlashtirish, shuningdek ushbu qonunlardan foydalanish uchun ham jamoaning kuchini ishga solish huquqini va davlatni chetdan bo'ladigan bosqinlardan himoya qilishni ko'zda tutadi.

Lokk Gobbsning individlar o'zlariga tegishli bo'lgan barcha tabiiy huquqlaridan davlat foydasiga voz kechadi, degan fikrni inkor qiladi. Uning fikricha, yashash huquqi, mulkka egalik huquqi, erkinlik va tenglik kabilarni inson hech qachon bировga bermaydi. Bular insondan begonalashtirilmaydigan qadriyatlaridir.

Qonunlar davlatning "asosiy va ulug' maqsadlarini" barchaga ma'lum bo'lgan va barcha tomonidan bajarilgan holdagina amalga oshiradi. Davlatda hech kim, hech qanday organ qonunga bo'ysunishdan ozod etilmasligi kerak. Lokkning bunday pozitsiyasi uning XVIII-XIX asrlarda ishlab chiqilgan "huquqiy davlat" g'oyasining asosiy talablaridan ancha ilgarilab ketganligi ko'rsatadi.

Davlatning o'zi kabi, har qanday qonun ham ko'pchilik xohish-irodasi va qaroriga ko'ra o'rnatiladi. Ko'pchilik bilan birga bitta hokimiyatga bo'ysunuvchi yagona siyosiy organizm tashkil qilishga rozi bo'lgan har bir kishi o'ziga "ko'pchilikning qaroriga bo'ysunish" majburiyatni oladi. Bu fikrlar Lokk qarashlarini liberal-demokratik ta'limot deb tavsiflashga asos bo'ladi.

Erkinlikni ta'minlash, siyosiy hamjamoaning "asosiy va buyuk maqsadi"ni amalga oshirish, Lokkning fikricha, davlatning vakolatlari uning turli organlari o'rtasida aniq-ravshan bo'lib berilishini talab qiladi. Qonun qabul qilish vakolati (qonunchilik hokimiyati) butun xalq vakillarining yig'ini bo'lmish parlamentga tegishlidir. Qonunlarni hayotga joriy qilish vakolati esa (ijro hokimiyati) monarxning, vazirlar mahkamasining tasarrufiga kiradi. Ular, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan aloqalarni ham tasarruf qiladilar.

Qachonki, hokimiyat organlari, qonunchilik hokimiyatimi yoki ijro hokimiyatimi, baribir huquq va umumiy kelishuvni e'tiborga olmasdan, davlatda qabul qilingan qonunlarni chetlab o'ta boshlasalar, mamlakatni boshqarish

parokanda bo'лади, mol-mulk himoyasiz bo'lib qoladi va xalq vayronalikka uchraydi.

Lokk, xuddi Gobbs singari, individga asosiy unsur sifatida qaraydi va davlatni individlar o'rtasida tabiiy holatga barham berish maqsadida tuzilgan ijtimoiy bitimning natijasi sifatida talqin qiladi. Tabiiy holat haqidagi ta'limot davlatning paydo bo'lishi haqidagi, u aslida qanday paydo bo'lgani to'g'risidagi nazariya bo'lmay, balki davlat nima ekanligini tushuntiruvchi va shu yo'l bilan davlatni qonuniylashtiruvchi nazariya bo'lib hisoblanadi.

Ammo Lokk individ va davlat tushunchalarining Gobbsdagiga nisbatan mo'tadilroq shaklini ilgari suradi. Lokk uchun barchaning barchaga qarshi urushi, o'z o'zini saqlash tamoyili va absolyutizm mavjud emas. Faqat, o'zlarining aqlga muvofiq manfaatlarini ko'zlab, boshqaruvning vakillik shakllariga asoslangan huquqiy jamiyatda yashovchi erkin fuqarolar mavjud. Bu jamiyatda individga ma'lum huquqlar, jumladan, mulkka egalik qilish huquqi kafolatlanadi.

Lokk tabiiy holatga anarxik urush holati emas, balki individlar cheksiz erkinlikka va teng huquqlarga ega bo'lgan turmush tarzi sifatida qaraydi. Biz bu tenglikni o'z aql-idrokimiz yordamida tushunishga qodirmiz. Bu har bir kishi boshqalarga zarar etkazmasdan, o'ziga o'zi xo'jayin bo'lish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, bu tenglik va erkinlik biz o'z jismimiz va faoliyatimiz mahsulini tasarruf qilish, ya'ni mehnatimiz natijalariga egalik qilishi huquqiga ega bo'lishga haqli ekanligimizni anglatadi. Individlar tabiiy holatdan siyosiy uyushgan jamiyatga o'tishga o'z jonidan qo'rqqani uchun emas, balki tabiiy holatdan ko'ra tartibli jamiyatda yashash xavfsizroq ekanligini o'z aqllari bilan tushunib etganliklari uchun intiladilar. Jamiyatda individning shaxsiy mulkka egalik qilish huquqi alohida qo'riqlanadi.

Aytish mumkinki, Lokk Gobbsga qarama-qarshi o'laroq, spontan ravishda tartibli faoliyat ko'rsatuvchi va hatto tabiiy holatda ham mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan jamiyat bilan siyosiy tashkilot va siyosiy bitim mahsuli hisoblangan davlat o'rtasida farq o'tkazadi.

Lokk uchun siyosiy tartibga solingan jamiyat absolyut despotizm hisoblanmaydi. Bu ma'lum qoidalarga bo'ysungan ko'pchilikning boshqaruvidir. CHunonchi, har bir individ bo'linmas huquqlarga ega bo'lib, ularga biron-bir hukmdor dahl qilishi mumkin emas. Bu jamiyat konstitutsion boshqaruv shakliga ega ekanligini anglatadi. Lokk uchun shaxsiy erkinlikning maksimizatsiyasi va individning huquqlariga asoslangan konstitutsion boshqaruv bitta medalning ikki tomoni hisoblanadi.

Gobbs uchun davlatning maqsadi individning jon saqlashini kafolatlovchi tinchlikni ta'minlash hisoblanadi. Lokk uchun esa davlatning maqsadi bundan tashqari yana xususiy mulkni himoya qilishdan ham iboratdir.

Bu jihatdan Lokkning nuqtai nazari antik davr va O'rta asrlar uchun umumiy bo'lgan davlatning bosh vazifasi axloqiy vazifa – yaxshi hayot uchun, insonning hamjamoada o'zini axloqiy va siyosiy jihatdan namoyon etishi uchun asos bo'lish ekanligi haqidagi fikri bilan to'qnashadi. Oldingi davr an'anasi nuqtai nazaridan, xususiy mulkni himoya qilish axloqiy vazifaga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. Xususiy mulkni himoya qilish faqat u odamlar yaxshi yashashi uchun zarur bo'lgan darajada maqsad bo'lib hisoblanadi.

Lokkning davlat eng avvalo mulkni himoya qilishni lozimligiga bergan e'tibori oddiy an'anaga ziddir. Ko'pincha buni Lokka zamondosh burjuaziyaning ustuvor manfaatlari ifodasi sifatida tushuntiradilar, zotan xususiy mulkni himoya qilish bu manfaatlar orasida eng asosiysi hisoblangan.

Lokk mehnat bilan mulkka egalik qilish huquqi o'rtasidagi aloqa haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Tabiiy holatda, jamiyat yuzaga kelgunga qadar, individ o'z atrofidagi hamma narsadan foydalanishi mumkin bo'lgan. Biroq, individ tabiiy ob'ekt bilan ishlaganida, masalan, yog'ochdan qayiq yasash bilan shug'ullanganida, u bu ob'ektga o'zidan nimanidir sarflaydi. Individda o'zining mulkiga aylangan bu ob'ektga nisbatan manfaat paydo bo'ladi. Individlar bitim tuzish orqali tabiiy holatdan ijtimoiy holatga o'tganlarida, jamiyat bu xususiy mulkni himoya qilishi kerakligi o'z-o'zidan nazarda tutiladi.

Ammo Lokk radikal liberalizm (*laissez-faire liberalism*), ya'ni davlatga minimal o'rin ajratib, xususiy sarmoya egalariga faoliyat uchun maksimal imkoniyat beradigan iqtisodiy siyosat tarafdori emas edi. XVII asr oxirida Angliyada yashagan ko'pchilik zamondoshlari singari, Lokk ham davlat o'z tadbirkorlarini xorijiy raqobatchilardan himoya qilish bo'yicha ma'lum proteksionistiklik rolini o'ynashini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosatni qo'llab-quvvatlaydi.

Davlat xususiy mulkni himoya qilishi, tartibni saqlashi va boshqa davlatlarga nisbatan proteksionistik siyosatni amalga oshirishi kerak, ammo u savdo-sotiq va sanoatni boshqarmasligi lozim. Iqtisodiyot xususiy-kapitalistik bo'lishi kerak. Davlat shuningdek, ijtimoiy siyosat, masalan, shaxsiy daromadlarni tenglashtirish va kambag'allarga yordam berish bilan ham shug'ullanmasligi lozim. Bu sohada Lokk radikal liberalist hisoblanadi. Hamma narsaning negizida individning shaxsiy mehnati yotadi. Davlat individlarga ijtimoiy va iqtisodiy tenglik emas, balki ma'lum huquqiy tenglikni ta'minlashi kerak. Radikal liberalistlar, ya'ni radikal liberalizm tarafdorlari singari, Lokk ham alohida individning egoistik intilishlari bilan umumiy manfaat o'rtasida tabiiy uyg'unlik mavjud, deb o'ylagan bo'lsa kerak. Radikal liberalizmdan ijtimoiy liberalizmga o'tish faqat XIX asrning o'rtalarida, chegaralanmagan shaxsiy tashabbus, ma'lum ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik, odatda, har bir individ uchun mumkin bo'lgan eng ma'qul natija olib kelmasligi tushunib etilganidan keyin boshlandi.

Lokk aynan individlar jamiyatda suveren hisoblanadi deb ko'rsatadi. Biroq, modomiki, individlar ijtimoiy bitimni ma'qullar ekanlar, unda ularning hammasi ko'pchilikning irodasiga bo'ysunishlari kerak. Lokk absolyutizmga qat'iy qarshi chiqadi. Xudoning marhamatiga ega monarx emas, balki individlar yig'indisi suveren bo'lib hisoblanadi. Biroq bunday yondashuvda ijtimoiy bitim ma'qullangan taqdirda nima uchun sotsiumni ko'pchilik boshqarishi lozimligi muammoli bo'lib qoladi. Nima uchun ozchilik suverenlikning o'zi mohiyatan ega bo'lgan qismidan amalda foydalanishdan bosh tortishi kerak? Javob pragmatik xususiyatga ega: jamiyat faoliyat ko'rsatishi uchun ozchilik ko'pchilikning

irodasiga bo'ysunishi lozim. Ammo bu qoniqarsiz javob. Nima, jamiyat kuchli ozchilik boshqaruvi ostida faoliyat ko'rsata olmaydimi? Lokkning ko'pchilikka urg'u berishi uning davrida zodagonlarning imtiyozlariga qarshi chiqqan burjuaziya ob'ektiv ravishda manfaatdor bo'lgan huquqiy tenglik talablariga to'liq mos kelar edi. Ammo Lokk umumiy saylov huquqli vakillik boshqaruv shakli ma'nosidagi ko'pchilik boshqaruvi tarafdori emas. U har bir individ ovoz berish huquqiga ega bo'lishi kerak deb hisoblamaydi va saylov huquqining faqat "boy tabaqalar" burjuaziya va zodagonlarga berilishini nazarda tutuvchi Angliyadagi 1689 yil islohotini yoqlaydi. Lokk liberalistik fuqarolik demokratiyasini faqat burjuaziya deb hisoblaydi. Liberalizmga muvofiq, individ tushunchasi, odatda, bolalar, xotin-qizlar va xizmatkorlarni emas, balki faqat alohida xo'jalik uyning xususiy-kapitalistik egasini o'z ichiga oladi. Aynan u o'z ixtiyoriga shartnoma munosabatlariga kirishadi va ratsional asosda daromad bilan huzur-halovatni maksimallashtiradi. Liberalizm individga yuklovi xususiyatlarni cho'ri yoki otboqarda ko'rish juda mushkul. Shuning uchun ham Lokk ko'pchilikning irodasi haqida aytgan gaplarini so'zma-so'z tushunmaslik kerak.

Shu bilan birga Lokk hukmdorlar hokimiyatini chegaralash muammosi bilan shug'ullangan nazariyotchilar qatoriga mansub bo'lganligini ham qayd etib o'tish kerak. Ijrochi va qonun chiqaruvchi hokimiyat bitta organda jamlanmasligi kerak. Lokk hokimiyatning bo'linishi tamoyilini qo'llab quvvatlaydi.

Lokk uchun tabiiy huquq konsepsiyasi har bir individning bo'linmas insoniy huquqlari g'oyasiga asoslanadi. Bu g'oya Lokk uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan shu huquqlar individ va uning mulkini davlatning aralashuvidan himoyalashga xizmat qilishi kerak. Tabiiy huquqlarni bunday tushunish burjuaziyani absolyutizmdan siyosiy himoya qilish uchun muhimdir. Agar Lokk radikal empiritsist bo'lganida, uning empiritsistik epistemologiyasi bilan tabiiy huquqlar g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi siyosiy nazariyasi o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lar edi. Individ bo'linmas huquqlarga ega ekanligini empiritsist qanday bilishi mumkin? Qaysi oddiy hissiy taassurotlari biz bu huquqlarni buzmasligimiz kerakligini unga aytadi?

Lokkning biz ko‘rib chiqqan siyosiy falsafasida odamlar bir xil huquqlarga ega bo‘ladi, degan fikr bilan hokimiyat mulkdorlar qo‘lida bo‘lishini nazarda tutuvchi siyosiy tartibning himoyasi o‘rtasida ma’lum ixtilof mavjud. Bu qanday bo‘lishi mumkin?

Biz Lokkning tabiiy holat va jamiyatga asoslanuvchi ixtiyoriy bitim haqidagi nazariyasiga qaytishimiz lozim bo‘ladi. Tabiiy holatni ko‘rib chiqar ekan, Lokk barcha odamlar teng ekanligini ta’kidlaydi: “Bu shuningdek tenglik holati ham bo‘lib, unda butun hokimiyat va butun yurisdiksiya o‘zaro teng bo‘ladi, - biri ikkinchisidan ko‘proq huquqqa ega bo‘lmaydi. Bir zot va turga mansub bo‘lgan, tug‘ilishida bir xil tabiiy ustunliklarni qo‘lga kiritgan va bir xil qobiliyatlardan foydalanuvchilarning bir-biri bilan hech qanday bo‘ysundirish yoki tazyiqsiz o‘zaro teng bo‘lishidan tabiiyroq narsa yo‘qdir” [6, 124-126]. Shu bilan bir vaqtda u, tabiiy holatga munatazam ishora qilgan holda, “shunday qilib, men boshqalar bilan birga huquqqa ega bo‘lgan har qanday yerda mening o‘tim chimdigan o‘t, xizmatkorim qirqqan chim va o‘zim qazib olgan ruda biron-bir kishining buyrug‘i yoki roziligisiz mening mulkimga aylanadi” [6, 128]. Axir, xizmatkor siyosiy jihatdan to‘laqonli individ bo‘lmaydimi? Aksincha, keltirilgan ikkinchi parchadan xizmatkor ot bilan teng darajada ekanligi ko‘rinadi. Xizmatkor bilan ot bajaruvchi ish “mening mulkim”ga aylanadi. Bu ziddiyat shu bilan izohalanadiki, Lokkning davrida xizmatkorlarga siyosiy hamjamo a’zolari sifatida qaralmagan: odamlar yoki individlar haqida gapirilganida, odatda erkak jinsiga mansub voyaga etmagan shaxslar – zodagonlar va burjuaziya vakillari nazarda tutilgan.

Lokk bir-biri bilan ixtiyoriy ravishda shartnoma va bitimlarga kelishuvchi voyaga etgan shaxslarni individ deb hisoblaydi. Ijtimoiy tuzilmalar bunday bitimlarning natijasi sifatida rekonstruksiya qilinishi mumkin. Bu yetarli darajada zamonaviy tushunchadir. Individlar, ya’ni avvalgi feodal tizginlari va tabaqaviy ierarxik chegaralashdan xalos bo‘lgan voyaga etgan shaxslar ma’rifatli shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqib, jamiyat tashkiloti qanday bo‘lishi kerakligini o‘zlari erkin hal qiladilar. Lokk o‘zining shaxslararo munosabatlarga bitimlar sifatida yondashuvini nikohga ham tatbiq qiladi. “Nikoh hamjamoasi erkak va ayol

o'rtasida tuzilgan ixtiyoriy bitim orqali tashkil topadi; garchi u asosan er-xotinni birlashtirishni va birining ikkinchisiga tanmahramlik huquqini belgilasa-da, - zotan bu asosiy maqsad – nasl qoldirish uchun zarur, - shu bilan birga, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi" [6, 145-146]. SHaxslar o'rtasidagi barcha munosabatlarni ixtiyoriy bitim g'oyasi yordamida tahlil qilish haddan tashqari jo'n bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, Lokkning davrida individ va bitim singari tushunchalar insonni va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni siyosat va iqtisoddan boshlab nikohgacha o'rganishga Yangi va istiqbolli yondashuvga yo'l ochgan. Keyinchalik biz bu yondashuvning davlat va huquq nazariyalarida, iqtisodiy ta'limotlar va xususiy sohadagi tadqiqotlar (erkak va ayol, farzand va ota-ona munosabatlari)da qo'llanilishini ko'rib chiqamiz. Faqat mana shu qo'llashdan keyingina bunday bitimli yondashuv va u bilan bog'liq individni tanlashning ratsionalligiga bo'lgan ishonch tanqidi yuzaga keldi. Yum bitim g'oyasini emotsiyalar va kelishuvlar bilan almashtiradi. YOpiq an'anaga murojaat qiladi. Gegel insonning ijtimoiylashuvi uchun o'zaro formativ jarayonlarning muhimligini qayd etadi va shu jumladan Kantning nikohga bitim sifatida qarashini tanqid qiladi.

Bu muammolarni nazarda tutib, Lokk tabiiy holat nazariyasining uch jihatini ko'rib chiqamiz:

Avval individlar hamma narsaga birgalikda ega bo'ladi, biroq har bir individning burchi o'zi haqida qayg'urish bo'lgani tufayli, u mehnat qilishi kerak bo'ladi. Ammo "...har bir inson uning o'z shaxsida zohir bo'lgan qandaydir mulkka ham egaki, unga uning o'zidan boshqa hech kim hech qanday huquqqa ega emas. Biz uning tanasi va uning qo'llari mehnati qat'iy ravishda faqat uning o'ziga tegishli deb ayta olamiz. Inson tabiat yaratgan va saqlab kelgan predmetning holatidan nianiki chiqarmasin, u buni o'z mehnati bilan uyg'unlashtiradi va unga o'ziga tegishli bo'lgan nimanidir joylaydi, bu bilan uni o'zining mulkiga aylantiradi" [6, 148].

Individual mehnat individga o'zi yaratgan mahsulotga egalik qilish huquqini beradi. Bu mulk oxir natijada xususiy mulkka aylanishidan dalolat beradi. Ammo

bu shuningdek, biologik turdoshlik munosabatlari mulkka egalik qilish huquqini bermasligini anglatadi. Bu aytilganlar tabiiy holatga ham taalluqli. Siyosiy jihatdan tartibga solingan jamiyatga o'tilishi bilan xususiy mulkka egalik qilish huquqi ko'rinishidagi egalik qilish huquqi o'rnatiladi va shu bilan bir vaqtda mulk vorisligi tamoyili tan olinadi. Bu tamoyil xususiy mulk individning shaxsiy mehnati mahsuli hisoblanishi haqidagi tezisga mos kelmaydi.

Individ mulkka o'zi foydalana oladigan miqdorda egalik qilish huquqiga ega. Ammo individ o'z mehnati natijasida ega bo'lgan mulkni behuda sovurish huquqiga ega emas. Lokk natural xo'jalik g'oyasidan kelib chiqqani tufayli, egalik qilish huquqi individ uchun tabiiy cheklovlarga ega bo'ladi, deb o'ylaydi. Individ etishtirgan va u shaxsan iste'mol qiluvchi hosil uning xususiy mulki bo'lib hisoblanadi. Ammo individ hosilni o'z holiga tashlab, chiritish huquqiga ega emas.

Nihoyat, Lokk barcha odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun manbalar yetarli darajada ko'p, deb hisoblaydi. Buning ustiga, erga va narsalarga ishlov berish biz qo'llovchi narsalarning qiymatini jiddiy oshiradi. Manbalar bilan bog'liq qoidaga to'xtalib, u, jumladan, "dunyoda ikki karra ko'p aholini qondirish uchun ham er yetarli" [6, 250] ekanligini ko'rsatadi. Uning davrida yerda yarim milliardga yaqin aholi yashar edi. Oradan qariyb ikki yuz yil o'tib u ikki karra ko'paydi va bizning kunlarda ham ko'payishda davom etmoqda.

Lokkning fikricha, har bir kishi o'z mehnati yordamida, isrofgarchiliksiz yashasa va hamma uchun yetarli manbalar mavjud bo'lsa, unda individlarning ma'lum darajada uyg'un tengligi mavjud bo'ladi. Tabiiy holatning bunday bosqichi natural xo'jalik, individual mehnat tufayli hosil bo'lgan va xususiy iste'mol bilan chegaralangan xususiy mulk bilan xarakterlanadi. Ammo pulning kashf qilinishi va odamlarning ularga qimmat berilishiga so'zsiz rozi bo'lishlari katta mol-mulklarning hosil bo'lishi va ularga nisbatan huquqlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, siyosiy ijtimoiy bitimga qadar ham odamlar qaysidir vaqtda pulni joriy qilish haqida "e'tirozsiz va ixtiyoriy bitim" [6, 251] tuzadilar. Pul bilan birga erning adolatsiz taqsimlanishi "erga nomutanosib va tengsiz egalik qilish" [6, 252] yuzaga keladi. Pul, kumush va tilla bilan har bir

kishi “o‘zi ishlata bilganidan ko‘proq erga halol ega bo‘la olishi” [6, 252] tufayli, “kelishuv birovga zarar etkazmasdan to‘plash mumkin bo‘lgan o‘zining ortiqcha tilla va kumushiga almashtirishdan iborat bo‘ladi: bu metallar ularning egalari qo‘lida buzilmaydi va emirilmaydi” [6, 253]. Vaqt o‘tishi bilan buziluvchi hosildan farqli o‘laroq, pulni to‘plash mumkin. Individning qo‘lida pul ulkan miqdorda to‘plangan taqdirda ham, ular “buzilmaydi” [6, 253]. Binobarin, individ qonuniy asosda ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarga tabiiy chegaralanish bo‘lak mavjud bo‘lmaydi. Bunda mavjud manbalar barchaga yetarli bo‘lishi va xususiy mulk shaxsiy mehnat natijasi hisoblanishi nazarda tutiladi.

Pul paydo bo‘lishi bilan moddiy tengsizlik yuzaga keladi. Kimdir ko‘p narsaga, kimdir kam narsaga ega bo‘ladi. Lokkning fikricha, bu tengsizlik pulning individlar o‘rtasida ixtiyoriy bitim asosida joriy qilinishi tufayli yuzaga keladi. Shunday qilib, katta mol-mulklar qonuniy yo‘l bilan yuzaga keladi. Shuning uchun yo‘qsinlar norozilik uchun asosga ega bo‘lmaydilar, zotan, Lokka ko‘ra, har bir kishi pulni joriy qilish haqidagi bitimning qatnashchisi hisoblanadi.

Ushbu bosqichda jamiyat siyosiy ma’noda hali yuzaga kelganicha yo‘q. Biz hozircha tabiiy holatda turibmiz. Shuning uchun ham jamiyatni pul joriy qilinishi oqibatida yuzaga kelgan mulkiy tengsizlikda ayblash uchun siyosiy ma’noda asos yo‘q. Shuni qayd etish kerakki, Lokk pulga faqat ayirboshlash vositasi va mol-mulk to‘plash shakli sifatida qaramaydi. Oldi-sotdi jarayonida pul xuddi er singari atributga aylanadi: u ma’lum yillik daromadni ta’minlaydi. Pul “o‘sadi”. Biroq u qanday o‘sishi mumkin? Lokkning aytishi, pul “bir kishining mehnati uchun mukofot bo‘lgan daromadni boshqa bir kishining karmoniga o‘tkazadi. Natijada pulning tengsiz taqsimlanishi ro‘y beradiki, u erga nisbatan tengsizlik bo‘lgani singari tengsizlikka olib keladi... Erning tengsiz taqsimlanishi, biz ishlay oladigan yoki ishlashni istaganingizdan ko‘p erga ega bo‘lasiz, boshqa birov esa kam erga ega bo‘ladi, sizning eringizga ijarachining paydo bo‘lishiga olib keladi; ...Xuddi shunday pulning noteng taqsimlanishi, men sarflay oladigan yoki sarflashni istamaganimdan ko‘p pulga ega bo‘laman, boshqa birov esa kam pulga ega bo‘ladi, mendan pul qarz oluvchi shaxsning paydo bo‘lishiga olib keladi” [6, 254].

Pulning o'sishi tushunchasi bilan bir qatorda, biz shuningdek ishchi yoki, to'g'riroq aytganda, xizmatkor "erkin inson" bo'lib, "boshqa birovga ma'lum vaqtga o'rniga o'rin oladigan haq evaziga majburiyatini oluvchi xizmatlarni sotadi va o'zini uning xizmatkoriga aylantiradi" [6, 255], degan g'oyaga ham ega bo'lamiz. Bu feodal jamiyatdagi sohibiga bog'liq bo'lgan xizmatkor emas. Bu o'zining ishchi kuchini bozorda tovarni sotib olishdan manfaatdor bo'lgan shaxsga sotuvchi ishchidir. Moddiy tengsizlikka qo'shimcha ravishda bu yerda "mehnatni sotib oluvchi" bilan "mehnatni sotuvchi", pul va ish joylariga ega shaxs bilan o'zining ishchi kuchini sotuvchi shaxs o'rtasida farq ham mavjuddir.

Lokkning fikricha, siyosiy jamiyat Yangi, tom ma'nodagi ijtimoiy bitimning tuzilishi natijasida yuzaga keladi. Biroq bunday bitim nima uchun zarur? Axir tabiiy holatning pul allaqachon mavjud bo'lgan bosqichida hamma narsa ko'ngildagidek sodir bo'lmaydimi? Ikkita sabab bu bosqichni qoldirishga majbur qiladi. Hayot va mulkni himoya qila oladigan siyosiy tashkilotga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Har bir kishi o'z hayotini himoya qilishdan manfaatdor, mulkka ega bo'lgan shaxslar esa qo'shimcha ravishda uni himoya qilishdan ham manfaatdor bo'ladilar. Shuning uchun ham bunday ijtimoiy bitimdan hamma – garchi har xil asosga ko'ra bo'lsa-da, - manfaatdor hisoblanadi.

Gap, shunday qilib, XVII asrning ikkinchi yarmida, Angliya inqilobidan keyin mavjud bo'lgan Lokka zamondosh ingliz jamiyatiga umumiy jihatdan mos keladi. Bu mulkdor tabaqa siyosiy hokimiyatga va ayrim yuridik huquqlarga ega bo'lgan sinfiy davlat edi. Qanday qilib Lokk, o'z nazariyasini har bir kishining tengligi haqidagi taxmindan boshlab, uni mulkiy va siyosiy tengsizlik mavjud bo'lgan jamiyatni qonuniylashtirish bilan nihoyaladi? Umuman, qanday qilib siyosiy nazariya har bir individning bo'linmas huquqlari haqida gapirib, bir vaqtning o'zida iqtisodiy tengsizlikni va faqat mulkdorlar uchun ovoz berish huquqini qonuniylashtirishi mumkin?

Biz qanday qilib Lokk iqtisodiy tengsizlikni ixtiyoriy bitimdan keltirib chiqarganini ko'rdik. Bundan mulkiy tengsizlik uchun jamiyat emas, balki erkin individlar javob beradi, degan xulosa kelib chiqadi. Shundan keyin Lokk mulkka

ega bo'lgan shaxslar jamiyatda insonning aql-idrokini mujassam qiladi, deb hisoblaydi. Ovoz beruvchi va siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan shaxslar aql-idrokli bo'lishi lozimligi tufayli, bu ovoz berish huquqi va boshqa siyosiy huquqlar mulkdor tabaqaga berilishi kerakligini anglatadi. Bundan mulkka nisbatan mulkiy tengsizlik aql-idrokka nisbatan tengsizlik va siyosiy hokimiyatga nisbatan tengsizlik bilan yonma-yon turadi degan xulosa kelib chiqadi. Pulni joriy qilish haqidagi ixtiyoriy bitim juda ko'p oqibatlarga olib keldi. Imtiyozlardan mahrum qilganlar imtiyozga ega bo'lganlarni yoki jamiyatni bunday tengsizliklarning birortasini ham yaratishda ayblay olmaydilar. Zotan, biz hammamiz bitta ixtiyoriy bitimning qatnashchilari hisoblanamiz. Biroq hattoki hech narsaga ega bo'lmaganlar ham potensial jihatdan aql-idrokli hisoblanadi. Hatto ular ham o'zlarini rivojlantirishlari va o'zlariga xos bo'lgan insoniy ratsionallikni namoyon qilishlari mumkin.

Bu mulohazada taraqqiyotga bo'lgan ishonchning urug'lari mavjud bo'lib, ularning mevasini biz Ma'rifat davridan topamiz. Umuman olganda, kelajakda barcha odamlar moddiy va madaniy taraqqiyot yordamida aql-idrokli fuqarolar bo'la oladilar. Taraqqiyotga ishonch mavjud tengsizlikni engilroq qabul qilishga imkon beradi: kelajakda hamma yaxshi yashaydi. Siyosiy nazariyaning bizga taklif qilgan talqinidan Lokk qarshimizda eng avvalo o'ziga zamondosh Angliyadagi sharoitning nazariy himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi. U individning bo'linmas huquqlari haqidagi umumiy ijtimoiy tamoyillar yordamida siyosiy va iqtisodiy tengsizlikni qonuniylashtiradi. Bunda mazkur tengsizlikni asoslash uchun oraliq bitimlarning ixtiyoriyligi haqidagi tasavvur xizmat qiladi. Ammo bu g'oyalar boshqa mamlakatlar, masalan, Fransiyada mutlaqo boshqacha, ijtimoiy-tanqidiy o'rin tutdi. Lokkning siyosiy g'oyalari (fransuz ma'rifatparvar faylasuflari va Shimoliy Amerika inqilobining "asoschi-otalari" orqali) keyingi davrlarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Biz quyidagi haqiqatlarni shak-shubhasiz deb hisoblaymiz: barcha odamlar teng qilib yaratilgan va ularning barchasiga o'z yaratuvchisi tomonidan tug'ma va olinmas shak-shubhasiz huquqlar berilgan bo'lib, ularning qatoriga hayot, erkinlik

va baxt-saodatga intilish kiradi. Bu huquqlarni ta'minlash uchun odamlar orasida o'zining adolatli hokimiyatini boshqaruvchilarning roziligidan oluvchi hukumatlar joriy qilingandir. Agar hukumatning ushbu shakli mazkur maqsad uchun halokatli bo'lib qolsa, xalq uni o'zgartirish yoki yo'q qilish va bu xalqning fikricha, uning xavfsizligi va baxt-saodatga ko'proq imkoniyat yaratishga qodir bo'lgan tamoyillarga asoslangan va hokimiyat tashkilotiga ega bo'lgan Yangi hukumatni ta'sis qilishga haqlidir. Albatta, ehtiyotkorlik uzoq vaqtlardan beri mavjud bo'lgan hukumatlarni ahamiyatsiz yoki muvaqqat sabablarga ko'ra o'zgartirmaslikni maslahat beradi. Va biz, darhaqiqat, odamlar o'zlari ko'nikkan hukumat shakllarini bekor qilib, o'z huquqlarini tiklash o'rniga, jaholatga so'nggi imkoniyatga qadar chidashga tayyordirlar”.

Kapitalistik jamiyatning burjuaziya feodal zodagonlarga qarshi kurash uchun ham, milliy davlatni barpo etish uchun ham absolyut monarxga muhtoj bo'lmay qolgan bosqichda Lokk liberalizmning mafkurachisi bo'lib qatnashdi, deb hisoblash mumkin. Burjuaziya absolyut monarxni chetlatish va siyosiy rahbarlikni o'z qo'lga olish zaruratini his qildi. Gap ijtimoiy bitim va individning bo'linmas huquqlari haqidagi g'oyalardan boshlagan liberalizm haqida ketayotir. Liberal qonun chiqruvchi hokimiyat burjuaziya va er egalarining vakillaridan iborat milliy assambleyaga tegishli bo'ladi, ijrochi hokimiyat esa individning bo'linmas huquqlarini hurmat qilishi lozim bo'lgan (respublikachi yoki monarxist) hukumat qo'lida bo'ladi.

Falsafa tarixi mohiyat e'tibori bilan tafakkur, uning rivojlanishi va ayni jarayondagi ichki ziddiyatlar tarixidir. Bu tarix hodisalarning uzuq-yuluq emas, balki qat'iy izchilligiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, bu tarix yo'q joydan paydo bo'lgan g'oya va ta'limotlar tarixi emas. Unda nimaiki bo'lsa, barchasi biri ikkinchisidan o'sib chiqqandir. Jon Lokk falsafasi bir tomondan Frensis Bekondan boshlangan izchil empiristik ta'limotlar zanjirli reaksiyasining Immaniul Kant falsafasi bilan tutashtiruvchi muhim xalqa bo'lsa, ikkinchi tomondan, klassik empiritsizm va pozitivistik ta'limotlar o'rtasidagi ko'prikdir. Biz Lokkni e'tibordan soqit qilish bilan Yangi va eng Yangi davr falsafasi o'rtasidagi asosiy

bo'g'inlardan birini yo'qotamiz. Oqibatda esa Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasining yaxlit manzarasi o'rnini dog'lar egallaydi, xolos. Qolaversa, umuman falsafa uchun u bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lgan g'oyalarni ilgari surgan.

Amaliy tomondan Lokkni o'rganish XIX-XX asrlar anglo-amerika falsafasini yaxshiroq tushunish, ko'pgina zamonaviy falsafiy masalalarni muhokama va tahlil qilishda bizni ajoyib analitik vosita bilan qurollantiradi. Sobiq sho'rolar davrida urf bo'lgan va bugungi kunda ham o'z ta'sirini saqlab kelayotgan o'tmish faylasuflarga nisbatan mensimay, beparvolik bilan munosabatda bo'lish, siyosat va mafkuraning joriy holatidan kelib chiqib tadqiqot olib borish, ta'limotlarni sun'iy tarzda tasniflash, boshqacha aytganda, ularga "yorliq" osish qanchalar xato bo'lganini o'sha davrda materialist faylasuflardan biri bo'lmish Lokk bilan tanishish orqali yanada chuqurroq anglab etamiz. Davlat rahbarining o'zi, "falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanini tushunamiz. Shu bois haqiqatni topish uchun qarama-qarshi fikrlarni o'rta tashlaylik, muhokama qilaylik. Talabalar, ziyolilarimizning o'zi kerakli xulosani chiqarib olsin", deb turgan bir sharoitda ham eski qoliplarga yopishib qolgan faylasuflarimiz yo'q deya olmaymiz. Monotonlik, bir xillik ruhini har qadamda kuzatishimiz mumkin.

XVII asrning ikkinchi yarmida falsafaning asosiy masalalariga empirio-materialistik yondashuv Jon Lokk tomonidan rivojlantirildi. Lokkning ushbu yondashuvining kuchli va ojiz tomonlari bor. G'arb mutafakkirlari Jon Lokk ta'limotiga o'zgacha yondashadi. Bu turli shakllarda namoyon bo'ladi. XX asrning o'rtalarida Lokk falsafasini baholash ikki yo'nalishga ajraladi. Birinchisi, ikkinchi jahon urushining tugashi arafasida shakllangan, u pozitiv xususiyatga ega. Jumladan lingvistik falsafa tarafdorlari Lokk falsafasiga ko'proq qiziqish bildirganlar. Ikkinchi yo'nalish XX asrning 70-yillarida pozitivizmning inqirozi va postpozitivizmning shakllanishi bilan bog'lanadi. Lingvistik pozitivizm vakillari Lokk metafizikasini til anomaliyasi bilan bog'laydilar. Boshqa yo'nalish uning gnoseologiyasiga o'z diqqatini qaratadi, xususan, hissiy va ratsional, empirik va nazariy bilimlarning munosabati masalalari tahlili qilinadi.

Jon Lokk Tomas Gobbsning nominalizmi va Rene Dekartning ratsionalizmi ta'siri bilan murakkablashtirilgan materialistik empirizm bilish nazariyasini rivojlantirdi. Dekartning tug'ma g'oyalar haqidagi ta'limotini rad etgach, Lokk tajribani barcha g'oyalarning birdan-bir manbai deb e'lon qiladi. G'oyalar yo tashqi narsalarning sezgi organlariga ta'siri natijasida (sezgi g'oyalari), yoki ruhning holati va faoliyatiga qaratilgan diqqat natijasida (refleksiya g'oyalari) paydo bo'ladi. Sezgi g'oyalari vositasi bilan biz yo birlamchi, yoki ikkilamchi sifatlarni idrok etamiz. Tajribadan hosil qilingan g'oyalar bilim uchun faqat materialdir, ammo hali bilimning o'zi emasdir. Bilim bo'lmog'i uchun g'oyalar materiali farosat faoliyati bilan qayta ishlanmog'i lozimki, bu faoliyat sezgidan ham, refleksiyadan ham farq qiladi va taqqoslashdan, birga qo'shishdan va mavhumlashtirishdan iborat bo'ladi. Ana shu g'oyalar o'zgarib, murakkab g'oyalarga aylanadi. Lokk, Gobbsga ergashib, tilni umumiy bilimga erishish mumkinligining sharti deb hisoblaydi. Bilimni ikki g'oyaning bir-biriga muvofiqligini yoki nomuvofiqligini idrok etish deb ta'riflagach, Lokk butun aql yugurtirish bilimini, ya'ni g'oyalarning aql vositasi bilan muvofiq kelishini bilishning ishonchi dalili deb hisoblaydi. Aksincha, tajribaviy bilim faqat ehtimoldir; unda g'oyalarning muvofiqligini bilish tajriba faktlariga asoslanish natijasida erishiladi. Tashqi predmetning mavjudligi haqida bizning ishonchimiz his-tuyg'ularga tayanadi. Bilimning bu turini sensitiv deydi. Lokk oddiy ehtimollikdan yuqori va lekin aqliy bilishning ishonchliligidan past qo'yadi. Bizning moddiy va ayniqsa ruhiy substansiyalarni bilish qobiliyatimiz ma'lum darajada cheklanganligiga ishonishiga qaramay, Lokkni agnostik deb bo'lmaydi. Lokkning fikricha, bizning vazifamiz – hamma narsani emas, balki faqat bizning xatti-harakatimiz va amaliy hayotimiz uchun muhim bo'lgan narsani bilishdan iborat, bunday bilimni esa bizning qobiliyatlarimiz batamom ta'minlaydi.

Davlat hokimiyati va huquq to'g'risidagi ta'limotida Lokk tabiiy holatdan fuqarolik holatiga va davlatni boshqarish shakllariga o'tish g'oyasini rivojlantiradi. Lokkning fikricha, davlatning maqsadi – erkinlikni hamda mehnat vositasi bilan orttirilgan mulkni saqlashdir. Shuning uchun ham davlat hokimiyati o'zboshimcha

bo'lishi mumkin emas. Bu hokimiyat Lokkda qonun chiqaruvchi hokimiyatga, ijro etuvchi hokimiyatga va ittifoq, federativ hokimiyatga bo'linadi.

Lokk ishlab chiqqan davlat haqidagi ta'limot nazariyani boshqarishning siyosiy formasiga moslashtirish tajribasi edi, chunki Angliyada 1688 yilgi burjua inqilobi va burjuaziya bilan dvoryanlarning burjualashgan qismi o'rtasidagi kelishuv natijasida shunday shakl barpo etilgan edi. Lokkning fikricha, parlament an'analariga tayangan siyosiy tuzum davlat tuzilishining ideal shaklidir. U ko'pchilikning irodasi bilan ish yuritishi kerak. U buni mexanika sohasi bilan solishtiradi. Masalan, tana o'zining kuchlari ko'proq to'plangan joydan harakat qila boshlaydi. Lekin Lokk amalda burjuaziya va dvoryanlar tomonidan saylangan, xalq ommasidan butunlay ajralib qolgan parlamentdagi ko'pchilikni ko'zda tutadi. Lokk davlat funksiyalarini qismlarga ajratish tarafdori bo'lgan. Hokimiyat tashqi ishlar bilan shug'ullanishi kerak. Shu bilan birga Lokk hech kim tomonidan siqib qo'yilmaydigan iqtisodiy kuchlarning o'yini haqida gapiradi va bu bilan burjua siyosiy iqtisodining mumtoz vakillari fikrini oldindan bashorat etishga muvaffaq bo'ladi.

Jon Lokk falsafasining tarixiy ta'siri ulkan. Agar mavjud ijtimoiy tartib sharoitida shaxs lozim darajada tarbiya va kamolotga ega bo'lmasa, u vaqtda kishilarning o'zlari mavjud tartibni o'zgartirishlari kerak, degan fikr burjua inqilobini haq qilib ko'rsatish uchun katta ahamiyatga ega edi.

Fransuz falsafasining yo'nalishlaridan biri Lokkdan boshlanadi. Lokk tomonidan birlamchi va ikkilamchi sifatlarning farq qilishidan Jorj Berkli va Devid Yum foydalangan edilar.

XVII asrda Angliya, Fransiya, Gollandiyaga nisbatan Germaniya birmuncha qoloq mamlakat edi. Unda hali ham feodal munosabatlar hukmron bo'lib, kapitalistik munosabatlar endigina tug'ilib kelayotgan edi. Savdo-sotiq va sanoat rivoji endigina tetapoya qila boshlagan, butun hokimiyat dvoryanlar qo'lida edi. Mamlakatning turli qismlari bir-biridan keskin farq qiladigan, o'ziga xos xo'jalik aloqalari va manfaatlariga ega edi. Germaniyadagi o'sha davr falsafiy fikrlarining eng yirik vakshsharidan biri **Gotfrid Leybnits** (1671—1716 yillar) edi. Leybnits

falsafasining mag‘zi uning monadolar haqidagi ta’limotida o‘z ifodasini topgan. Leybnits cheksiz ruhiy substansiyalar mavjudligini tan oladi. Ularni *monado* deb ataydi. Bu ta’limot uning ko‘pchilik asarlarida, ayniqsa, “Monadologiya”sida ifoda etilgan. U monadolar mutlaq sodda, harakat qiluvchi kuch va mustaqillikka ega, har bir monado boshqa monadolardan farq qiladi, deb ta’kidlaydi. Leybnits ta’limoticha, moddiy substansiya ko‘lamga ega emas, o‘lik, tashqaridan harakatga keluvchi massadir, monadolar moddiy emas, ular ko‘lamga ham ega emas. Ular bo‘linmas, makon esa cheksiz bo‘linuvchidir. Monadolar makonga ham ega emas, fizik nuqtalar ham emas. Ularning tabiati sof ruhiy, ular harakatlantiruvchi kuchning markazidir. Monadolar “ilohiyot uchqunining” uzluksiz ajralib chiqishidan vujudga keladi. Ilohiy uchqun esa — birlamchi monado bo‘lib, u har qanday borliqning oxirgi asosidir.

Leybnits ta’limoticha, monadolar o‘z rivojlanish darajalariga qarab bir necha turlarga bo‘linadi. Sodda monadolar, jon monadolari, ruh monadolari Shular jumlasidandir. Sodda monadolar faqat xira tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Jon monadolari sezadilar va qayta ishlaydilar. Ruh monadolari tasavvurga ega bo‘lgan ongli mohiyatlardir. Ular “odam” va “geniy” kabi o‘xshatishni eslatadi. Monadolar tashqi dunyoga qaratilgan “ko‘zgudan mahrumdirlar” [1, 37]. Leybnitsning ta’limoticha, har bir monado o‘zicha bir dunyodir, har bir monado — o‘z-o‘ziga ega bo‘lgan yagona narsadir. Mutlaq reallik faqat monadolarda va ularning tasavvurlarida mavjuddir. Materiya — bu xira tasavvurlarning qorishmasidir.

Leybnitsning ta’limoti qarama-qarshi xarakterga ega. Bir tomondan, unda monadolarning to‘liq mustaqilligi e’tirof etilsa, ikkinchi tomonlan esa, ularning xudoga bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Monadolar bir-birining ichki dunyolariga ta’sir etmaydilar. Ularga sababiylik, qonununiyat xarakteri taalluqli emas. Lekin Shunga qaramasdan ular moslikda harakat qiladilar. Monadolarning bu birligini isbot qilish uchun Leybnits o‘zining tizimiga “ilgaridan ko‘zda tutilgan garmoniya” degan ilohiyotchilik ruhidagi tushunchani kiritadi. Go‘yoki xudo monadolarni yaratganda ularning birligini azaldan ta’minlab qo‘ygan. Har bir monado butun koinotni namoyon qiladi. Koinotdagi har qanday o‘zgarish har bir

monadoga taalluqlidir. Monado o'zining ichida cheksizlikka ega. U "koinotning tirik ko'zgusi"ga aylanadi. Ilgaridan ko'zda tutilgan "garmoniya" tushunchasi Leybnits falsafasini "Teo-ditsiya" (adolatli xudo ta'limoti) ta'limotiga olib keladi, ya'ni mavjud tartiblarni uning nomi bilan oqlashni nazarda tutadi.

Leybnits falsafasi dialektika elementlariga ega. Substansiyaning faollik tamoyili, birlikning umumiylik bilan aloqasi, har bir narsaning butun dunyo bilan aloqasi, materiya va harakatning aloqadorligi qoidasi — bularning hammasi dialektikaga taalluqli mulohazalar namunasidir. Leybnitsning idealistik dialektikasi keyinchalik Shelling naturfalsafasida va Gegel falsafasida o'zining keyingi rivojini topdi. O'zining bilish nazariyasida Leybnits ratsionalistik nuqtai-nazardan turib. Lokk sensualizmi va empirizmini tanqid qiladi. Leybnits tor empirizmga ratsional bilishni qarama-qarshi qo'yadi, lekin uni idealistik talqin qiladi. Leybnitsning fikricha, umumiylik va undan ajralmas zaruriyatning ratsional bilishga xos bo'lgan manbai hissiy tajriba emas, balki aqlning o'zidadirki, "zaruriy haqiqatlar" bizdan tashqarida mavjuddir. Shunday qilib, Leybnits Dekartning tug'ma g'oyalar haqidagi ta'limotini o'zgartirib ko'rsatadiki, jon mum ham emas, toza taxta ham emas. Leybnits jonni marmar balchig'iga o'xshatadi. Unda bo'lg'usi haykalning belgilari mavjud.

Leybnits o'zining bilish nazariyasiga ratsionalizm bilan birga empirizm elementlarini ham kiritadi. Uning fikricha, empirik yo'l bilan anglanmaydigan, aql haqiqatlari bilan birga tajriba yo'li bilan, induksiya yordami bilan aniqlanadigan dalillar haqiqati ham mavjuddir. Uning fikricha, aql haqiqatlariga mantiq va matematikaning hamma haqiqatlari kiradi. Dalil haqiqatlariga esa — tabiiy fan haqiqatlari kiradi.

Uningcha, birinchi — aql haqiqatlari zaruriy bo'lsa, ikkinchi — dalil haqiqatlari tasodifiydir. Agar aql haqiqatlarini topish uchun Arastu mantig'i o'zining o'xshashlik qonuni, qarama-qarshilik qonuni va uchinchi mustasno qonuni bilan kifoyalangan bo'lsa, dalil haqiqatlari uchun esa bundan tashqari yana yetarli asos qonuni zarur bo'ladi. Leybnits bu qonunni o'zining "Monadologiya" asarida shunday ifodalaydi: "Bizning mulohazalarimiz ikki buyuk ibtidoaga:

qarama-qarshiliklar ibtidosi va yetarli asos boshlang'ichiga asoslanadi. U tufayli biz bironta hodisa yetarli asossiz haqiqiy bo'lolmasligini aniqlaymiz" [1, 38].

Yetarli asos qonunini Leybnits hodisalar zanjirini axtarish yo'li deb qaragan. Unda har bir halqa o'zidan oldingi halqa uchun yetarli asosdir. Butun zanjirning oxirida esa butun mavjud narsalarning yetarli asosi — xudo yotadi. Shunday qilib, Leybnitsning bu ta'limotida bilishning yo'li sababiylikning mexanistik tushunchalar bilan bog'liqligi, ya'ni sabab va oqibatning o'zaro uzviy mos kelishi muhim deb sanaladi.

Leybnits texnika masalalariga ham katta e'tibor qaratib kelganligi ko'pchilikka ma'lum. U Paskal modelini takomillashtirib, hisoblash mashinasini quradi. Paninga bug' mashinasining asosiy g'oyasini aytib beradi. Leybnits o'zining uzluksizlik haqidagi ta'limotini butun tabiatga tatbiq qilishga harakat qiladi. Bu tamoyilga suyangan holda u yer tarixi muammosini hal qilishga intiladi. Uning fikricha, yerning ustki qatlami deyarli vulqonlar tufayli vujudga kelgan.

Hayvonlar va o'simliklarning qazib olingan qoldiqlari haqidagi chuqur ilmiy fikrlarni aytadi. Asosiy inson irqi va qabilalarining tarqalish va migratsiyasi haqida ham chuqur ilmiy fikrlarni ilgari suradi. Leybnits uzluksizlik tamoyilining biologiyaga tatbiq qilib, hayvonlar va o'simliklar o'rtasida organik tomonlan yaqinlik bor deydi va hamma tirik mavjudotlar jonsiz tabiat bilan aloqadadir degan xulosaga keladi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, Leybnits tirik va notirik dunyoning ayrim hodisalari o'rtasidagi yaqinlik va aloqani mavhum tarzda tushunga n. Masalan, u shunday deb yozadi: "Koinotda hamma narsa shunday aloqadaki, hozirgi mavjud narsalar hamma vaqt o'zida kelajakni berkitib saqlab turadi va har bir mavjud holatni faqat bevosita ana shu holatning o'tmishdoshi tufayli tabiiy yo'l bilan izohlash mumkin" [1, 39]. Leybnits qomusiy xarakterga ega bo'lgan olim edi. Falsafa, matematika, fizikaga oid asarlaridan tashqari u huquq, tarix va tilshunoslikka ham oid bir necha asarlar yozgan.

## **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. XVII asr ratsionalistik metafizikasida matematik metodlar asosida falsafani aniq fan sifatida yaratishga urinishlar.
2. «Birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlar aloqasi masalasining keng muhokama qilinishi.
3. Falsafiy va xususiy-ilmiy bilimlarning chegaralanishi.

### **Adabiyotlar:**

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р., Қобулниёзова Г., Рузматова Г. Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси.. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Фарб фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Premier-print, 2011.
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Фалсафа. Қомусий луғат /Қ.Назаров таҳрири остида. –Тошкент: ЎФМЖ, 2005.
5. Паскаль Б. Мысли. Перевод О.Хомы. –М., 1994.
6. Локк Д. Сочинения. в трех томах. –М., 1985.